

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 149 (938), 2023-yil 28-iyul, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



XALQNING TURMUSH SHAROITINI YANADA YAXSHILASH, VILOYAT IQTISODIYOTIGA FAOL INVESTITSİYALAR JALB QILISH BO‘YICHA YUKSAK MARRALAR KO‘ZLANGAN

Prezident Shavkat Mirziyoyev 27-iyul kuni qishloq xo‘jaligi va sanoatdagi yirik loyihalar, yangi ishlab chiqarish quvvatlari hamda mahallalar hayoti bilan tanishish maqsadida Farg‘ona viloyatiga keldi.



Har bir hududning “o‘rish nuqtalari”ni rivojlantirib, odamlarga ish o‘rni va daromad manbasi yaratish — davlatimiz siyosatining ustuvor maqsadi. Olti yil tumanida dehqonchilik shunday tayanch soha. Bu yerning odamlari mahsulot yetishtirish va uni eksport qilishning hadisini olgan.

Ilgari bu tumanda ham paxta va g‘alla ko‘p ekilgan edi. Davlatimiz rahbarining g‘oyasi bilan qishloq xo‘jaligi ekinlari manfaatdorlik, bozor talablari asosida o‘zgartirildi. Bunda nafaqat ekishga erkinlik berildi, balki har tomonlama qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Prezidentining meva-sabzavotchilik sohasida qo‘shimcha qiymat zanjirini yaratish, uzumchilikni rivojlantirishda klaster tizimini joriy etish to‘g‘risidagi qarorlari bu sohaga yangi imkoniyatlar ochdi. Xo‘jaliklarga subsidiyalar berildi, ilg‘or texnologiyalar jalb etish davlat tomonidan rag‘batlantirildi. Bu imkoniyatlar natijasida bugun uzumchilik katta tarmoqqa aylandi, bunday xo‘jaliklar ko‘payib bormoqda.

2020-yilda tumanda “Xayrullo Bahrom Boymatov” fermer xo‘jaligi tomonidan 75 gektarda uzumchilik plantatsiyasi tashkil etilgan edi. Davlatimiz rahbari ushbu tokzor-ni kelib ko‘rdi.

Bu yerda “Husayni”, “Kelimbarmiq”, “Rizamat”, “Mercedes” kabi uzum navlari yetishtirilmoqda. Ular kelgusi yildan to‘liq hosilga kiradi va jami 3 ming tonna uzum yetishtiriladi.

Oldinlari bu maydonda paxta ekilib, o‘rtacha 25 sentnerdan hosil olingan. Endi uzumning narxi bilan solishtirganda, bir gektardan daromad qariyb 10 barobar oshgan.

Yana bir muhim tomoni, fermer xo‘jaligida mavsumiy yumushlar bilan birga 700 kishining bandligi ta‘minlangan. Ular kuniga 200 ming so‘mgacha ish haqi oladi.

Prezidentimiz yoshlarga va ishsiz fuqarolarga uzum parvarishini o‘rgatib, ular bilan kooperatsiya asosida uzum yetishtirish,

bunga chet ellardagi yurtdoshlarimizni ham jalb etish zarurligini ta‘kidladi.

Bog‘da, shuningdek, olma, gilos va o‘rik ko‘chatlari, qator oralariga tarvuz, qovun, pomidor, qalampir, bulg‘or qalampiri va boshqa sabzavotlar ekilgan. Bular ham aholi daromadi, yurtimiz eksportini oshirish uchun qo‘shimcha manba bo‘lmoqda.

Bog‘ yonida 2 ming tonna sig‘imga ega bo‘lgan sovitkichli ombor qurilgan. Bu yerda mahsulotlar saqlanib, saralanib, Turkiya va MDH mamlakatlarga eksport qilinadi.

Davlatimiz rahbari mamlakatimizda iqlimi uzumchilikka mos tumanlar ko‘pligini ta‘kidlab, qalampir, bulg‘or qalampiri va boshqa sabzavotlar ekilgan. Bular ham aholi daromadi, yurtimiz eksportini oshirish uchun qo‘shimcha manba bo‘lmoqda.

Bugun 2 ming 800 nafarga yaqin aholi yashaydi. Odamlar tomorqadan unumli foydalanadi. Ayollar tikuvchilik bilan shug‘ullanadi. Chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik ro‘zg‘orlarga baraka kiritgan.

O‘ndan ortiq savdo do‘konlari, mebelsozlik korxonasi, sartaoshxona, tikuvchilik va hunarmandchilik ustaxonalarida aholi ish bilan band. Shuningdek, yoshlarning sport bilan shug‘ullanishi uchun yaxshi sharoit bor. Mahallada oxirgi ikki yilda birorta jinoyat sodir etilmagan.

Davlatimiz rahbari shu yerlik Abdug‘affor Xalilov xonadonida bo‘lib, mahalla vakillari bilan suhbatlashdi.

— Bugun kelib, Farg‘onadagi rivojlanishni, mahallalardagi sharoitni ko‘rib xursand bo‘ldim, — dedi Shavkat Mirziyoyev. — Islohotlarni har bir inson o‘z hayotida his qilishi uchun hamma ishlarni quyi tizimda tashkil etyapmiz. Farg‘ona viloyatida 1062 ta mahalla bor. Ulardagi muammolarni, muhtoj oilalarning talab-istaklarini joyida hal etib, odamlarni rozi qilish zarur. Barcha rahbarlar dunyoqarashini o‘zgartirib, xalqimizga munosib bo‘lib, mehnat qilishi kerak.

Samimiy suhbatda nuroniylar so‘nggi yillarda mahalla qiyofasi yaxshilangani, “Ochiq budjet” tashabbusi orqali ko‘chalar obod bo‘lganini aytdi. Xususan, 5 kilometr ichki yo‘lga asfalt yotqizilgan. Elektrik tarmoqlari va transformator yangilangan.

Prezident suhbatda bildirilgan fikrlarni qo‘llab-quvvatlab, mahalla idorasini ta‘mirlash, maktab uchun qo‘shimcha bino qurish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi. Yoshlarni o‘qitish va hunar o‘rgatish, bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish muhimligi haqida so‘z yuritildi.

“Qo‘qon” erkin iqtisodiy zonasida o‘nlab korxonalar samarali faoliyat yuritmoqda. Yaqinda bu yerda “BNBM Building Materials Central Asia” korxonasi ochildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Farg‘ona viloyatiga tashrifi doirasida ushbu korxonani ko‘zdan kechirdi.

Korxonaga 30 million dollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorij investitsiyasi yo‘natilgan, yiliga 30 million kvadrat metr gipsokarton va 4 million kvadrat metr dekorativ gipsokarton ishlab chiqarish quvvati yaratildi. 200 ta yangi ish o‘rni joriy etildi.

Shu yerda Farg‘ona viloyatidagi yangi majmualarni ishga tushirish marosimi bo‘ldi. Bular — Beshariq tumanidagi “Farg‘ona Yasin qurilish mollari”, Uchko‘prik tumanidagi “Mollis” va “Proker”, Rishton tumanidagi “Chinor plyus — 2020”, Toshloq tumanidagi “Ekspo kollor prin teks”, Farg‘ona tumanidagi “Bahodir Log‘on tekstil”, O‘zbekiston tumanidagi “Sement xomashyo savdosi”, Qo‘shqepa tumanidagi “Global Tekstail Inifiniti” korxonalari, shuningdek, shoshilinch tibbiy yordam hamda kardiologiya ilmiy-amaliy markazlari filiallaridir.

Shundan so‘ng Prezident raisligida investitsiyalarni jalb etish, sanoat va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. Videoaloqa orqali uni Qoraqalpog‘iston Respublikasi rahbariyati, barcha viloyat va tumanlar hokimlari ham kuzatib bordi.

Saylovoldi uchrashuvida aholi turmush sharoitlarini yanada yaxshilash, viloyat iqtisodiyotiga faol investitsiyalar jalb qilib, aholi daromadlarini oshirish bo‘yicha katta marra-rlar olingani qayd etildi.

— Oldimizda hali yetti yil bor, bu ishlarni ertaga yoki keyingi yildan boshlaymiz, degan vazir yoki hokim qattiq adashadi. Chunki odamlarimiz Saylovoldi dasturlarida ko‘tarilgan har bir tashabbus bo‘yicha aniq natijalarni bugundan kutayapti. Agar eng yuqoridan tortib, mahallagacha ish uslubi o‘zgarmasa, barcha darajadagi rahbarlar “har bir yangi kun — yangi imkoniyat” deb ishlashga o‘rganmasa, vaqtini boy berib qo‘yamiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezident to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya jalb qilish bo‘yicha Farg‘ona viloyatidagi ayrim tuman va shaharlarning ko‘rsatkichlari qoniqarsizligini ko‘rsatib o‘tdi.

Misol uchun, Farg‘ona shahrida o‘tgan yilning olti oyida bor-yo‘g‘i 25 million dollar investitsiya kiritilgan bo‘lsa, joriy yilda ushbu raqam atigi 12 million dollarni tashkil qilmoqda. Marg‘ilon shahrida, O‘zbekiston, Bag‘dod, Toshloq tumanlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi o‘tgan yilgi ko‘rsatkichning yarmiga ham yetmaydi.

Bir paytlar sanoat bo‘yicha peshqadamlardan biri bo‘lgan Farg‘ona hozir respublikada 12-o‘ringa tushib qolgan ko‘rsatib o‘tiladi. Sanoat salohiyati yetarlicha ishga solinmayapti. Misol uchun, birinchi yarim yil-likda sanoat hajmi Toshloqda 17, Qo‘qonda 3 foizga, Oltiariqda 1,3 foizga va Quvada 1,2 foizga kamaygan.

Aholini arzon uy-joylar bilan ta‘minlash bo‘yicha ham ahvol yaxshi emas. Joriy yilda viloyatda qurilishi rejalashtirilgan 212 ta uy-joydan bugungi kungacha 42 tasi foydalani- shga topshirilgan, xolos.

Viloyatda xizmatlar sohasi rivoji ham qoniqarli emas.

Umuman, viloyatda 2022-yilning olti oyida faoliyatini to‘xtatgan korxonalar soni 2,5 mingtani tashkil qilgan bo‘lsa, bugungi kun-

da ushbu ko‘rsatkich 14,5 mingtaga yetgan.

Yil boshida respublika bo‘yicha 60 ta tuman to‘rtinchi va beshinchi toifalarga kiritilib, ularni iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha alohida dastur boshlandi. Farg‘onada ushbu toifalarga kirgan Furqat, Yozyovon va So‘xdagi tadbirkorlar o‘tgan olti oyda 30 milliard so‘mlik soliq imtiyozlaridan foydalan- gan. Lekin mazkur tumanlarda natija ko‘rinmayapti. Ahvol yaxshilanishi o‘rniga, ulardagi tadbirkorlar tushumi o‘tgan yilga nisbatan kamayib ketgan.

Sanoat zonalarida katta maydonlar bo‘sh turganligi, viloyatdagi 19 ta tuman va shahar hokimlari ularni tadbirkorlarga taklif qilib, mavjud imkoniyatlardan foydalanmayotgani tanqid qilindi.

— Shuncha bo‘sh joylar turib, hokimlar sanoat zonalarini uchun qishloq yerlari toifa- sini o‘zgartirish bo‘yicha murojaat qilishdan charchamayapti. Eng achinarlisi, viloyatda ishlab chiqarish bo‘lgan davlat obyektlarini xususiy lashtirib, ular o‘rnida yakka tartib- dagi uy-joylar qurib yuborish holatlari bor, — dedi davlatimiz rahbari.

Bosh prokuratura, Kadastr agentligiga bunday holatlarni tekshirib, qonun ustuvor- ligini ta‘minlash topshirildi. Bundan buyon sanoat maqsadlari uchun mo‘ljallangan yerlar toifasini o‘zgartirish bo‘yicha qaror- lar faqat Hukumat komissiyasi roziligi bilan amalga oshirilishi belgilandi.

Dehqonlarga ekin yerlarini ijaraga be- rish ishlari ham nomiga tashkil qilingani, yashash joyidan yoki suvdan uzoq yerlar ajratilayotgani ko‘rsatib o‘tiladi. O‘tkazilgan so‘rovlar natijasiga ko‘ra, 32 foiz yer ega- lariga tuman hokimligi tomonidan hech qan- dagi yordam ko‘rsatilmagan. Inflyatsiyani jilovlash, bozorlarda narxlar barqarorligini ta‘minlash bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar ham qoniqarsiz ekanini qayd etildi.

Faoliyatidagi jiddiy kamchiliklari, ish- larni lozim darajada tashkil etmagani uchun viloyat, shahar va tumanlar darajasidagi bir qator rahbarlar lavozimidan ozod qilindi.

Viloyatning ishga solinmagan imkoniyat- larini aniqlash va ularni ro‘yobga chiqarish bo‘yicha har bir tuman va shaharga respub- likadan mas‘ulalar birlashtirilgan. Ular tomoni- dan 2 milliard dollarlik qo‘shimcha xazinalar aniqlangan va tadbirkorlar bilan uchrashib, loyihalar shakllantirilgan.

— Agar hokimlar vaqt ajratib, tadbirkor- lar bilan uchrashib, ularning dardiga quloq solsa, tashabbuslarini tinglasa, viloyatdagi tumanlarning barchasi yil yakuniga qadar bemaol kamida 100 million dollardan investitsiya jalb qilishi mumkin, — dedi davlatimiz rahbari.

Davlatimiz rahbari Quva va Beshariq tumanlari misolida ushbu imkoniyatlarni ko‘rsatib o‘tdi.

Prezident Farg‘onada boshlangan ushbu tajribani barcha hududlarda yo‘lga qo‘yish uchun yil yakuniga qadar safarbarlik e‘lon qildi. Har bir tuman uchun yil yakunigacha kamida 100 million dollardan investitsiya jalb qilish vazifasi qo‘yildi.

Minimal iste‘mol xarajatlari miqdori 500 ming so‘mdan 570 ming so‘mga oshiril- gani sababli Farg‘onada yana 9 ming oila kambag‘al toifasiga qo‘shildi. Shu bois, mu- tasaddilarga ushbu oilalarning har biriga ho- kim yordamchilarini birlashtirib, ularning daro- madini oshirish choralarini ko‘rish topshirildi.

Farg‘onada aholiga dehqonchilik uchun auktsionga chiqarilib, talabgor aniqlan- magan 1 ming 157 gektar ekin yerlarini aholi uchun qulay hududlarga almashtirish, bu yerlarda kamida 15 ming ish o‘rni yaratishga ko‘rsatma berildi.

Yig‘ilish yakunida hudud va sohalar rahbarlari hisobot berdi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ma’sudjon SULAYMONOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O‘ZA muxbirlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati suratlari.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGINING 32 YILLIGI OLDIDAN

MAQSADIMIZ — BIR
BIZNI EL-YURT MANFAATI VA BUYUK G‘OYALAR BIRLASHTIRADI

Qoraqalpog‘ning ulug‘ shoiri Ibroyim Yusupov qon-qardosh xalqlarimiz haqida shunday yozadi: “Daryoni daryoga qo‘shgan, Fazolarning sirin ochgan, Bir oiladek uyushgan, Mangu yasha, tug‘ishganlik”. Yoki boshqa bir she‘rida “Qanday yaxshi birodar, Odamzodning yuragi. Bir odamga bir odam, Bo‘lsa doim keragi”, deydi.

Shoirming bu misralarini bejiz keltir- madik. Boisi, keyingi yillarda anglab yetgan haqiqatimiz mamlakatimizda ya- shayotgan ko‘p millatli xalqimiz orasida o‘zaro birodarlik, birdamlik va mehrdosh- lik hissi yuksalgani bo‘ldi.

Xalqimiz bu qutlug‘ hodisani haqli

ravishda mamlakatimizda yuz berayot- gan katta islohotlar samarasi bilan bog‘laydi. Bunga har birimiz o‘z hayo- timiz, qolaversa, mahallamiz, ovulimiz, shahar-u tumanlarimiz, umuman, mam- lakatimiz o‘zgarayotgani misolida gu- vohmiz.

▶ Davomi 3-betda



BUGUNNING GAPI

SELEKSIYA — OZIQ-OVQAT
XAVFSIZLIGIDA
MUHIM YO‘NALISH

“Obinovvot”, “Bo‘rikalla”, “Mramorniy”, “Yusupov”, “Obidov”... Bozorda qovun-tarvuz, pomidor va kartoshkaning bu kabi navlari juda xaridorligi. Sotuvchilar-u dehqonlar ham aynan shu nomlarni aytib, xaridor chorlaydi. Negaki, odamlar bu mahsulotlar aslligini biladi. Deyarli har bir oila tomorqasida bunday betakror ta‘mli tabiiy mahsulotlar yetishtiriladi.

Lekin negadir bir muddat mana shun- day asl mahsulotlar bozorlarimizda ka- mayib, ular o‘rnini yangi navlar egallay boshladi. Dehqonlarimiz chetdan keltiril- gan super ertapishar urug‘lar orqali hosilni tezroq bozorga chiqarib, ko‘proq daromad

olishga oshiga boshladi. Buni kimlar- day asl mahsulotlar bozorlarimizda ka- mayib, ular o‘rnini yangi navlar egallay boshladi. Dehqonlarimiz chetdan keltiril- gan super ertapishar urug‘lar orqali hosilni tezroq bozorga chiqarib, ko‘proq daromad

▶ Davomi 4-betda



INSON HUQUQLARI UMUMJAHON DEKLARATSIYASINING 75 YILLIGIGA

INSONPARVARLIK
TAMOYILINING YORQIN IFODASIHARAKATLANISH ERKINLIGI CHEKLANGAN
MUASSASALARDA HAM O‘Z AKSINI TOPMOQDA**Feruza ESHMATOVA,**
Oliy Majlisning Inson huquqlari
bo'yicha vakili (ombudsman)

Inson huquqlarini ta'minlash masalasi shaxsning ozodlikda yoki jazo muddatini o'tayotganidan qat'i nazar, o'z dolzarbligini yo'qotmaydi. Mahkum va mahbuslar ham qonun hujjatlarida belgilangan muayyan huquqlarga ega. Xususan, Konstitutsiyamizda ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar o'ziga nisbatan insoniy muomalada bo'linishi hamda inson shaxsiga xos bo'lgan qadr-qimmatni hurmat qilinishi huquqiga ega ekanini belgilangan.



eng og'riqli muammolardan. Shu sababli dunyo hamjamiyati ushbu illatga qarshi kurashda kuchlarni birlashtirish, xalqaro miqyosda bajarilishi majburiy bo'lgan normalarni ishlab chiqish yo'lidan bormoqda.

BMT Bosh Assambleyasining 2002-yil 18-dekabrda tegishli rezolyutsiyasi bilan Qiynoqlar hamda muomala va jazolashning boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamситadigan turlariga qarshi konvensiyaga doir fakultativ protokolda milliy preventiv mexanizm (MPM) tashkil etilishi nazarda tutilgan.

MPM har qanday qiynoq ko'rinishlarining oldini olish maqsadida mustaqil xalqaro va milliy organlarning ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar saqlanadigan joylarga muntazam tashriflari tizimini yaratishdir.

Harakatlanish erkinligi cheklangan muassasalarda saqlanadigan shaxslarning huquq va manfaatlarini ta'minlash ozodlikda bo'lgan insonlarnikiga nisbatan bir oz murakkab jarayon. Avvallari yopiq muassasalardagi hodisalar doim ham jamoatchilik nazoratida bo'lavermas edi.

2019-yilda ombudsman huzurida ilg'or xalqaro tajribalarga asoslangan qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamситuvchi muomala hamda jazo turlarining oldini olish bo'yicha milliy preventiv

mexanizm yo'lga qo'yilganidan so'ng penitensiar muassasalar ombudsman va jamoatchilik vakillarining doimiy nazoratida bo'ladigan obyektlarga aylandi. "Ombudsman plus" modeli asosida tashkil etilgan MPM harakatlanish erkinligi cheklangan yopiq muassasalarga ombudsman va jamoatchilik vakillari muntazam ravishda kirishi va u yerda saqlanayotgan fuqarolar sharoitlarini o'rganishi, ular bilan muloqot qilishiga zamin yaratdi.

Tashriflarda harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslarni saqlash sharoitlari, xususan, yashash va ovqatlanish, mehnat qilish, tibbiy yordam ko'rsatish holati, sifati, ma'naviy-ma'rifiy ishlar hamda ta'lim-tarbiya berish va boshqa shu kabi holatlar o'rganildi. Ahamiyatli tomoni, monitoringlarda OAV xodimlari ham ishtirok etib, ularga penitensiar muassasalardagi sharoitlarni o'z ko'zi bilan ko'rish, mahkum hamda mahbuslar bilan muloqot qilish imkoniyati yaratildi. Monitoring tashriflari davomida aniqlanayotgan kamchiliklar yuzasidan tahliiliy ma'lumot va axborotlar, xulosa va taqdimnomalar hamda talabnomalar tayyorlanib, mutasaddi vazirlik va idoralarga ko'rib chiqish uchun yuborilmoqda.

Birgina 2022-yilda 381 marotaba monitoring tashrifi amalga oshirilgan bo'lsa, 2023-yilning birinchi yarim yilida bu ko'rsatkich 348 tani tashkil etdi. Raqamlardan ham ma'lumki, ombudsman jamoatchilik guruhlari bilan birgalikda mahkum va mahbuslarga qonunchilikda belgilangan sharoitlarni o'rganish va qiynoq holatlarini aniqlash hamda bartaraf etish bo'yicha faoliyatini kuchaytirib bormoqda. Natijada

qiynoqqa solish holatlarining oldini olish bo'yicha parlament va jamoatchilik nazorati o'rnatilishiga erishildi. 2019-yildan to hozirga qadar 25 mingdan ortiq mahkum va mahbus bilan jamoaviy, ularning 6 mingga yaqini bilan yakka tartibda suhbatlar o'tkazilgan.

Harakatlanish erkinligi cheklangan muassasalarda saqlanayotgan shaxslar hamda ularning yaqin qarindoshlari va himoyachilari (advokatlari) tomonidan 2019-2022-yillar va 2023-yilning birinchi yarim yilida 10 mingdan ortiq murojaat kelib tushgan va nazoratga olingan. Ushbu raqamlar mahkum va mahbuslarning ombudsman murojaat qilish huquqlari ta'minlanayotganini ko'rsatadi.

Shu o'rinda jazoni ijro etish muassasalari va tergov hibsonalariga o'rnatilgan "Ombudsman quti"lari va ularning ahamiyatiga to'xtalish zarur. Ushbu qutilar mahkum va mahbuslar murojaat tashlashi uchun qulay joylarga o'rnatiladi va ularni faqatgina ombudsman vakili ochish huquqiga ega. Bu murojaat va arizalar har ikki haftada ko'rib chiqish uchun olib ketiladi.

2022-yildan e'tiboran ombudsmaning hududlarda doimiy asosda ishlovchi mintaqaviy vakillari ish boshlashi ham penitensiar muassasalarga amalga oshiriladigan monitoring tashriflari qamrovini yanada kengaytirdi.

Keyingi yillarda ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilingan qiynoqqa oid xabarlar ham tezda nazoratga olinib, joyiga chiqib o'rganilyapti va tegishli choralar ko'rilmogda.

Prezidentimizning 2021-yil 26-iyunda "Qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomil-

lashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan ombudsman huzuridagi MPM faoliyati yanada kuchaytirildi. Jumladan, ombudsman huzuridagi ekspert guruhi negizida ombudsman huzuridagi Qiynoq holatlarini aniqlash va ularning oldini olish bo'yicha jamoatchilik guruhlari tashkil etildi. Ular zimmasiga qiynoqqa solish holatlarini aniqlash hamda ularni tezkor bartaraf etish bo'yicha talabnomalarni tegishli davlat organiga taqdim qilish, qiynoqqa solish holatlari to'g'risidagi murojaatlarni ko'rib chiqishda ishtirok etish kabi vazifalar yuklandi.

O'zbekistonda qiynoq holatlariga yo'l qo'ygan xodimlarga nisbatan jazo choralari og'irlashtirilib, hattoki ularga nisbatan afv qo'llanilmasligi mumkinligi ham qat'iy belgilab qo'yilganini qayd etish lozim. Qolaversa, mansabdor shaxslarni noqonuniy harakatlari uchun javobgarlikka tortish maqsadida qonunchilikka alohida modda kiritilgan va qiynoqni qo'llagan shaxsга nisbatan og'irlashtiruvchi normalar qo'llanilishi belgilangan. Jinoyat kodeksida qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamситuvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash uchun jinoyi javobgarlik nazarda tutilgan. Bu kabi normalar ko'plab davlatlar qonunchiligida mavjud emas.

Prezidentimizning 2019-yil 2-avgustdagi qarori bilan Qoraqalpog'istondagi Jasliq qo'rg'onida joylashgan jazoni ijro etish koloniyasi tugatilishi ham qiynoq holatlarini bartaraf etish borasidagi muhim qadam bo'ldi.

Umuman olganda, harakatlanish erkinligi cheklangan yopiq muassasalardagi sharoitlarni hozirgi va 5 yil avvalgisiga solishtirsak, juda katta o'zgarishlarga guvoh bo'lamiz. Ushbu o'zgarishlar, albatta, tizimdagi islohotlar va jamoatchilik nazoratining o'rnatilishi mevasidir.

Keyingi yetti yilda mahkumlarining qonuniy huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan 5 ta qonun, Prezidentning 1 ta farmoni, 6 ta qarori, hukumatning 11 ta qarori va farmoyishi, 15 dan ortiq boshqa normativ-huquqiy hujjat qabul qilingan. Bularning barchasi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi prinsiplarini to'laqonli amalga oshirish uchun xizmat qiladi, albatta.

BMT Bosh Assambleyasining 2015-yil 17-dekabrda rezolyutsiyasi aso-

sida qabul qilingan Mahkumlar bilan muomala qilishning minimal standartlari qoidalari 2019-yilda milliy qonunchiligimizga implementatsiya qilindi. Unga ko'ra, mahkumlarga psixologik yordam olish huquqi berildi, tibbiy yordamga muhtoj mahkumlarni sog'liqni saqlash muassasalariga joylashtirish, og'ip kasallikka chalanganlariga telefon orqali qo'shimcha so'zlashishga, shifokorning ruxsati bo'lsa, yaqinlari bilan uchrashishga ruxsat berildi, ruhiy holati buzilgan vaqtda mahkum tomonidan sodir etilgan tartibbuzarlik uchun intizimiy jazo choralari qo'llash bekor qilindi.

2019-yildan mahkumlarning ish haqidagi ijtimoiy sug'urta ajratilmasligi belgilanib, pensiya ta'minotiga ega bo'lishi ta'minlandi hamda yopiq turdagi koloniyalardagi mahkumlarning telefon so'zlashuvi, yo'qlov va uchrashuvlar olish soni qariyb ikki barobar ko'paytirildi.

Qonunchilikka 2023-yilda kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarga ko'ra, mahkumlarning muassasada ishlagan davrini umumiy mehnat stajiga qo'shish orqali ularga kelgusida pensiya olish imkoniyati yaratildi. Shu bilan birga, Jinoyat-ijroiya kodeksiga kiritilgan tegishli o'zgartirish va qo'shimchalarga ko'ra, mahkumlarning huquqlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirib, ularga surdortarjimon xizmatidan foydalanish huquqi berildi hamda I va II guruh nogironligi bo'lgan mahkumlarning yashash maydoni 2,5 kvadrat metrdan 3 kvadrat metrgacha oshirildi va ular uchun mo'ljallangan umumiy turar joylar maxsus vositalar va moslamalar bilan jihozlanishi belgilandi.

Ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslar jinsi, yoshi, sog'lig'i holati, mehnat qobiliyati va ixtisosligini hisobga olgan holda ishlashining belgilanishi ham insonparvarlik tamoyilining yorqin ifodasidir.

Saylov kodeksiga muvofiq, ijtimoiy xavfi katta va uncha og'ir bo'lmagan jinoyati uchun jazo o'tayotgan mahkumlarga saylov huquqi berilib, ularning davlat boshqaruvida ishtirok etishiga zamin yaratildi. Ma'lumotlarga ko'ra, joriy yil 9-iyulda Prezident saylovida penitensiar muassasalarda saqlanayotgan 34 mingga yaqin shaxs ishtirok etdi.

Jazoni ijro etish tizimi faoliyatiga raqamli texnologiyalarni, jumladan, smart kameralar, videoregistrator, rentgen-skaner qurilmasi, elektron do'konlar joriy etish, onlayn video-uchrashuv xizmatini yo'lga qo'yish borasida ham qator ishlar amalga oshirildi. Albatta, tizim faoliyatining raqamlashtirilishi penitensiar muassasalarda ishlovchi xodimlar ishini yengillashtirishi bilan birga, mas'uliyatini ham oshiradi. Pirovardida, qiynoq holatlarining oldini olish orqali inson huquqlari ta'minlanishiga zamin yaratildi.



O‘ZBEKISTON VA DUNYO

**Muzaffarxon JONIYEV,**
Imom Termiziy xalqaro ilmiy-
tadqiqot markazi direktori v.v.b.,
tarix fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD)

Do'st va mushtarak qadriyatlariga ega ikki davlat — O'zbekiston Respublikasi va Saudiya Arabistoni podshohlari o'rtasidagi munosabatlar barcha sohalar hamda turli yo'nalishlarda yildan-yilga rivojlanmoqda. Muntazamlik kasb etayotgan uchrashuvlar, samimiy muloqotlar o'zaro hamkorlik rivojiga katta turtki bermogda. Ko'plab ijtimoiy-tarixiy va madaniy-ma'rifiy mushtarakliklar har ikkala xalq uchun bir xilda ahamiyat kasb etadi.

Joriy yil 19-iyul kuni Saudiya Arabistonining Jidda shahrida bo'lib o'tgan Ko'rfaz arab davlatlari — Markaziy Osiyo oliy darajadagi birinchi sammitida davlatimiz rahbari nutq so'zlab, azal aloqalarga alohida to'xtalib o'tdi: "Markaziy Osiyo va Ko'rfaz mintaqasi xalqlarini azaldan yaqin savdo

aloqalari, mushtarak qadriyat va urf-odatlar, eng muhimi, muqaddas islom dinimiz chambarchas bog'lab turadi. Movarounnahr va Arabiston diyoralari o'rtasidagi tarixiy aloqalarni rivojlantirishda buyuk mutafakkir va alloma bobolarimizning beqiyos xizmatlari borligini faxr bilan eslaymiz. "Barcha muhaddislarning peshvosi" — ulug' alloma Imom Buxoriy ana shunday siymolardan biridir".

Darhaqiqat, Imom Buxoriy, Mahmud Zamaxshariy, Abu Iso Termiziy, Hakim Termiziy, Xoja Muhammad Porso kabi allomalarimizning ilmiy faoliyatida Makka va Madina shaharlarining o'rni beqiyos. Imom Buxoriy bobomiz islom olamidagi Qur'oni karimdan keyingi muqaddas manba bo'lmish "Al-Jome' as-Sahih" ("Ishonchli hadislar to'plami") asarini yozishni Makka shahrida boshlagan edi.

Ma'lumotlarga ko'ra, yetuk olim Shayx Ali Samarqandiy o'n to'rt yil Makkada imomlik qilgan. O'tgan asrlarda muqaddas shaharlar ziyoratiga borgan ajdodlarimizda hajnoma yoki haj safari xotiralari yozishdek go'zal an'ana bo'lgan. Mazkur turdagi asarlar sirasiga Hoji Abdurahmon Samarqandiyning "Ar-Risolatul mubarakata tabyinu ahvoli Makkatil muazzama val Madinatil munavvara" ("Makkai muazzama va Madinai munavvaraning bayoni haqidagi mubarak asar"), Mirzo Olim Max-

dum ibn Domullo Mirzo Rahim Toshkandiy tomonidan yozilgan "Dar bayoni rohi haj" ("Haj yo'llari bayoni"), Muhammad Solih Oxund Toshkandiyning "Hajnoma", Sulaymonxo'ja Ulug'xo'ja o'g'li Nodimning "Hajnomai Nodim" asarlarida Jidda, Makka va Madinaning iqlimi, tabiati, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga doir qimmatli tarixiy ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, Qori Rahmatulloh Vozehning "G'aroyibul xabar fi ajoyibis safar" ("Ajoyib safardagi g'aroyib xabarlar"), Xolmuhammad o'g'li Furqatning "Haj safari xotiralari", Is'hoqxon to'ra Ibratning "Haj safari xotiralari", Mahmudxo'ja Behbudiyning "Sayohat xotiralari"da ham muqaddas shaharlar tavsifi keltirilgan.

1979-yilda Ka'batullohning oltin eshigidagi yozuv va bezaklarni vatandoshimiz Abdurahim Amin Buxoriy suls xatida yozib bergan. U 1917-yilda Qo'qon xonligi hududida tavallud topgan. 20-yillar boshida Saudiya Arabistoniga ko'chib kelgan, 60-yillarda Saudiyaning eng mashhur xatoti sifatida shuhrat qozongan.

2022-yilning 17-18-avgust kunlari davlatimiz rahbari Saudiya Arabistoniga tashrifi doirasida Madinai munavvara Payg'ambarimiz alayhissalomning siyratlari va islom tamadduni muzeyi bilan tanishish asnosida yurtimizda ulug' allomalar nomi bilan ilmiy markazlar tashkil qilingani, islom madaniyati obidalari asrab-avaylanayotganini ta'kidlab, Saudiya olimlarini O'zbekistonga kelib, bu borada o'zaro ilmiy hamkorlikka da'vat qilishi zamirida ham ana shunday tarixiy ulug' maqsad yetibdi.

Albatta, ushbu aloqalar rivojida haj va umra safarlarining ahamiyati katta. Xususan, o'tgan asrlarda Turkiston musulmonlari Makka va Madinaga uch yo'l — Eron

QADIM ALOQALARDAN
YANGI MARRALAR SARI

Xalqlarimiz o'rtasida ko'p tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun chuqur tarixiy ildizlarga ega imkoniyatlar mavjud. Bularning barchasi ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarni bundan-da mustahkamlash uchun imkondir.

va Iroq, Afg'oniston — Hindiston — Hind okeani, Kaspiy dengizi — Ozarbayjon — Gruziya — Qora dengiz — O'rta yer dengizi — Misr va Qizil dengiz orqali borgan. Ushbu yo'llar asrlar davomida xalqimizning Arabiston bilan ijtimoiy, madaniy, siyosiy, iqtisodiy va ilmiy aloqalarida muhim rol o'ynab kelgan.

Yurtimiz musulmonlarining islom dinining muqaddas qadriyatlariga ehtiromi azal-azaldan doim baland bo'lgan. XX asr boshlariga qadar Makka va Madina shaharlarida Turkistondan borgan

ziyorchilarning haj ibodatini ado qilish davomida qolishiga mo'ljallangan turli homiyilar, hukmdorlar tomonidan tashkil etilgan, vaqf qilingan 27 ta takya, ya'ni o'ziga xos musofirxonalar faoliyat yuritgan. Ular Makka va Madina shaharlarida moddiy ahvoli nochor ziyoratchilar uchun O'zbek, Buxoro, Naqshbandiy, Marg'ioniy, Buxoriy, Samarqandiy, Toshkandiy, Andijoniy, Xo'qandiy va Namangoniy kabi nomlar bilan faoliyat ko'rsatgan.

Eng muhimi, ushbu musofirxonalar o'zbek xalqining milliy madaniyati, urf-odat-

lariga mos ravishda qurilgan va jihozlangan bo'lib, dunyoning turli go'shalaridan kelgan hojilarga xizmat ko'rsatgan.

Ularda musofirlar uchun d'zbek milliy taomlari tortilgan hamda Ahmad Yasaviy, Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab kabi o'zbek adabiyoti vakillarining she'rlari o'qilib, g'azalxonliklar qilingan. Shu jihatdan ushbu musofirxonalar o'zbek milliy-madaniy maskanlari ham deyish mumkin.

Yozma manbalar ikki xalq o'rtasida mustahkam ilmiy aloqalar izchil davom etganiga dalolat qiladi. Xususan, Xoja Muhammad Shafi' Samarqandiy tomonidan Madinai munavvara shahrida 1761-yilda "Dorul marhamat" (Marhamat dargohi) nomli madrasaga asos solingan. Madrasa Madina shahrining Hajjimin ko'chasida joylashgan bo'lib, u yerda imkoniyati cheklangan talabalarga darslar berilgan.

Buxoro amirligi va Usmoniylar davlatida katta nufuzga ega bo'lgan Shayx Sulaymon Buxoriyning o'g'li Abdurahmon Buxoriy tomonidan 1867-yilda Madina shahrining Habis ko'chasida "Al-Madrasatul o'zbekiyatil jadida" ("Yangi o'zbek madrasasi") nomli madrasa bunyod etilgan.

Darhaqiqat, xalqlarimiz o'rtasida ko'p tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun chuqur tarixiy ildizlarga ega imkoniyatlar mavjud. Bularning barchasi ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarni bundan-da mustahkamlash uchun imkondir.

Davlatimiz rahbarining Saudiya Arabistoniga safariga doir xabarlarini kuzatar ekanmiz, Prezidentimizning buyuk alloma ajdodlarimiz orzu-umidlari, xohish istaklariga mos ravishda xalqimizning buyuk tarixini tiklash, bugungi kuni shon-shuhratini Uchinchi Renessans poydevori sifatida tarixiga muhrlash borasidagi qat'iy intilishlariga guvoh bo'lamiz.

Binobarin, xalqaro tashkilotlar hamda ekspertlarning bu masaladagi haqli va adolatli e'tirofi fikrimizning yaqqol dalilidir.

Mana shunday yaqinlik va mustahkam tarixiy aloqalar O'zbekiston va Saudiya Arabistoni hamkorligiga davlat darajasidagi e'tibor bundan buyon ham har ikki mamlakat xalqlari farovonligi yo'lida chuqurlashtirib borishining eng ishonchli garovidir.



BIZ KATTA YO'LNING BOSHIDAMIZ. BU YO'LDA HALI YANGIDAN-YANGI TASHABBUS VA G'OYALAR YUZAGA CHIQRILADI. SHUNDA YANA BIR BOR SHOIRIMIZ SO'ZIGA QULOQ TUTGIMIZ KELADI: "EZGULIK UNIB-O'SSIN, INSON INSONNI SUYSIN! YO'QSA QANDAY YASHAYDI, BIR ODAMSIZ BIR ODAM?"



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MUSTAQILLIGINING 32 YILLIGI OLDIDAN



MAQSADIMIZ — BIR

BIZNI EL-YURT MANFAATI VA BUYUK G'OYALAR BIRLASHTIRADI



Bayrambay OTEMURATOV, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti rektori

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimiz bugungi O'zbekiston kechagi O'zbekiston emasligi, bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emasligini ko'p ta'kidlaydi. Bu bir qarashda tabiiydek tuyuladi. Lekin bu holga erishishda bir qator bosqichlarni muvaffaqiyatli bosib o'tganimiz xayolimizga kelavermaydi. Bugun mana shu bosqichlarni, o'tgan yillarda erishilgan yutuqlarimiz va ular oddiy fuqarolar hayotini qanchalik o'zgartirib yuborganini Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida tahlil qilmoqchimiz.

Avvalo shuni ta'kidlash joizki, Prezidentimiz saylovdi uchrashuvlari doirasidagi muloqotini bu safar ham qoraqalpog' elidan boshladi. Va shunda aytdiki: "Albatta, qilingan ishlar haqida ko'p gapirish mumkin, lekin islohotlarimiz natijasiga baho beradigan eng xolis hakam, bu — xalqimiz".

Mavzuga shu nuqtayi nazardan yondashadigan bo'lsak, ko'p millionli xalqimiz yana bir bor o'z Prezidentiga ishonch bildirgani bejiz emasligini aniq tushunib olamiz.

Birinchidan, unutilgan ovul va tumanlarga yangi hayot shukhi qaytdi. Qoraqalpog'iston Respublikasi mamlakatimizning shimoliy darvozasi hisoblanadi. O'ziga xos iqlim sharoitiga ega bo'lgan ushbu hududning yozi jazirama issiq, qishi o'ta sovuq. Lekin keyingi yillarda davlatimiz rahbarining Qoraqalpog' eliga bo'lgan yuksak mehri va e'tibori, alohida g'amxo'rliqi jaziramani yumshatib, ayozni iliqlikka aylantiradi.

Gap shundaki, Qoraqalpog'iston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash yo'lida qilinayotgan ishlar juda ko'p. Bugungi kunga kelib, hududning iqtisodiy tuzilishi tubdan takomillashtirilib, barqaror rivojlanishga mustahkam poydevor yaratilmoqda.

Prezidentimiz tashabbusi bilan Qoraqalpog'istonning shimoliy tumanlariga mamlakatimizning boshqa viloyatlari birkittirilib, hududda iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish, ichki investitsiyalarni jalb qilgan holda sanoat, ishlab chiqarish va tadbirkorlikni keng rivojlantirish borasidagi ishlar o'z samarasini bermoqda.

Bugungi kunga kelib, Qoraqalpog'iston Respublikasida og'ir sharoitda yashayotgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarning uy-joy sharoiti yaxshilandi, aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi 71 foizga yetdi.

Qoraqalpog'istonning tashqi iqtisodiy faoliyati yil sayin kengayib bormoqda. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni 196 tani tashkil etib, ko'rsatkich 3 barobar oshdi. Huddiy eksportyor korxonalar 2023-yilda 240 taga yetdi va 2016-yilga nisbatan 3 barobar ortdi. So'nggi 6 yilda Qoraqalpog'iston hududida ishlab chiqarilgan mahsulotlar AQSH, Fransiya, Italiya, Ispaniya, Niderlandiya, Portugaliya, Bolgariya, Kanada, Avstraliya, Misr, Bangladesh, Filipin, Isroil, Tayvan, Pokiston, Tailand, Birlashgan Arab Amirliklari va boshqa xorijiy davlat-

larga kirib bordi. Bu davlatlarga eksport qilingan mahsulotlar turi 2 barobar ko'payib, trikotaj mahsulotlari, ip-kalava, osh tuzi, ipak, un, quritilgan pomidor, shisha idishlari, yarim tayyor mebel, yarim tayyor charrm mahsuloti, infuzion sistema, bir martalik inyeksion shprislar, kir yuvish kukuni, suyuqitirilgan oyna, qishloq xo'jaligida foydalaniladigan setka va qorako'l terisi tashqi bozorda yuqori baholanmoqda.

Qoraqalpog'istonning iqtisodiy rivojlanishida "Uz-Kor Gas Chemical" qo'shma korxonasi, Qo'ng'iro't soda zavodi kabi yirik eksportchilar qatorida "Nukus Med Tex", "Orient technology", "Sebu Artemia" "Amudaryoteks", "Kanteks Invest", "Korporatsiya Aral San Bao", "Biogumus", "Laneksstrakt" va boshqa eksportyor korxonalarning o'rni bor.

Ikkinchidan, yoshlar va xotin-qizlarga e'tibor yuksaldi.

Qoraqalpog'istondagi oliygohlar soni 2 barobar ko'payib, 12 taga yetdi. Ularga qabul soni esa 3,5-marta oshdi va qamrov 19 foizdan 46 foizga o'sdi. Hozirgi vaqtda bu yerda 58 ming talaba tahsil olmoqda.

Aytish joizki, mamlakatimizda ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilarni, ayniqsa, ayol-qizlarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, boquvchisini yo'qotgan va ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni uy-joy bilan ta'minlash borasida ham qator amaliy ishlar qilinmoqda.

Davlatimiz tomonidan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha bir qator



Yo'llar aholi turmush farovonligi, mamlakat taraqqiyotini belgilovchi mezonlardan biridir. Qayerda yo'l qurilishi, ta'mirlash ishlari keng quloch yozsa, o'sha joyda zamonaviy infratuzilma obyektlari qad rostlab, aholi hayot tarzi yuksalib boraveradi.

Bugungi kunda Qoraqalpog'istonda jami 12 381,5 kilometr avtomobil yo'llari mavjud. Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari 4254 kilometr, ichki xo'jalik yo'llari, shaharlar va qishloq aholi punktlari ko'chalar 8127,5 kilometrni tashkil qiladi.

Haqiqatan, xalqimizning bunyodkorlik salohiyati so'nggi paytlarda yangi yo'l va ko'priklar qurish, uning infratuzilmasini

Bolalarning jismonan va ma'nian sog'lom bo'lib ulg'ayishi ko'p jihatdan sog'lom va sifatli ovqatlanishga bog'liq. O'z navbatida, bunda maktablardagi bepul ovqatlanirish samarali ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasidagi 716 umumta'lim maktabida boshlang'ich sinflardagi o'quvchilar keytereng usulida bepul ovqat bilan ta'minlangan. Endilikda esa olis va chekka ovullardagi bolajonlarimizning maktabga borishi uchun avtobus qatnovini yo'lga qo'yish Qoraqalpog'istondan boshlanadigan bo'ldi.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Xalqimiz ertaga emas, uzoq kelajakda emas, aynan bugun o'z hayotida ijobiy o'zgarishlarni ko'rishni istaydi". Shunday ekan, insonlarning bugungi hayotidan rozilignini ta'minlash yo'lidagi euzu ishlar davom etaveradi.

Beshinchidan, qoraqalpog'istonliklar uchun alohida imtiyozlar berilmoqda.

Qoraqalpog'iston uchun berilayotgan imtiyozlar qatorida 7000 nafar yoshga O'zbekistondagi barcha oliy o'quv yurtiga kvota ajratilayotgan bo'lsa, tadbirkorlar uchun qo'llaniladigan soliq turi va miqdori deyarli 2 barobar kamaytirilayapti. Faqatgina Qoraqalpog'iston uchun temir yo'l va aviachiptalarga 50 foizlik imtiyoz berish tizimi joriy qilindi. Yangi o'quv yildan e'tiboran, oliygohda o'qiyotgan xotin-qizlarning kontrakt to'lovlari daromad solig'idan ozod etiladi.

Shuningdek, Qoraqalpog'istonda agrotekologiyalar va muhandislik yo'nalishlarida yetakchi xorijiy oliygohlarning filiallari hamda Nukusda Raqamli texnologiyalar instituti ochiladi.

Prezidentimiz saylovchilar bilan uchrashuvda "Umuman, biz Qoraqalpog'istonda oliy ta'lim qamrovini kelgusi yilning o'zida 50 foizga yetkazamiz. Buning uchun, chet ellarda o'qiyotgan yoshlarimizning o'qishini yurtimiz oliygohlariga davlat granti asosida ko'chirish amaliyotini yo'lga qo'yamiz", deya ta'kidladi.

Bugungi kunda barcha shahar va tumanlarda jami 21 mingdan ortiq uy-joylar-da 350 milliard so'mlik qurilish-ta'mirlash ishlari olib borilayotgan bo'lsa, 452 mahallaning har biriga bevosita 500 million

xalqaro andozalar darajasida rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlarda namoyon bo'lmoqda. Shu ma'noda, mamlakatimizda zamonaviy yo'l hamda ko'priklar qurilishi, avvalo, yo'lovchilar xavfsizligini ta'minlash, ularning vaqtini tejash, mahallalarimiz qiyofasini tubdan o'zgartirishdek euzu maqsadlarga xizmat qilayotgani bilan ahamiyatli.

To'rtinchidan, maktabgacha va maktab ta'limi tubdan o'zgardi.

Davlatimiz kelajak avlod uchun zarur sharoitlar yaratish bo'yicha aniq yo'nalishga ega. Bog'chalar qamrovi 28 foizdan 81 foizga, ularning soni esa 317 tadan 1 ming 600 taga ko'paydi. 172 ta maktab mukammal ta'mirlanib, 104 ta maktabda qo'shimcha binolar barpo etilgan hisobiga 118 mingta yangi o'quvchi o'rni yaratildi.

Yaqin kelajakda Qoraqalpog'istonda 160 yangi bog'cha qurilib, ayrimlari qayta ta'mirlanadi, 2 mingta xususiy bog'cha tashkil qilinadi. Kelgusi yetti yildan 100 ming yangi o'quvchi o'rni yaratiladi. Bunda, 30 ta yangi maktab va 150 ta maktab uchun qo'shimcha bino qurilib, 350 tasi ta'mirlanadi. Ixtisoslashgan maktablar soni 2 karra oshirilib, 32 taga yetkaziladi. Natijada Qoraqalpog'istondagi maktablarda 30-35 dan ortiq bola o'qiydigan sinflar umuman bo'lmaydi.



so'mdan qo'shimcha mablag' ajratilmoqda. Shuningdek, kadastri yo'q 47 ming turar joy va ko'chmas mulk bo'yicha tegishli

hujjatlar beriladi. Shu bilan birga, joriy yilda 4 mingta uy qurilib, yana shuncha shaxsiy turar joy qurish uchun 4 sotixdan yer uchastkasi ajratiladi.

Oltinchidan, aholi qulay yashashi uchun zarur infratuzilma yaratilmoqda.

Qoraqalpog'istonda 2030-yilga qadar mo'ljallangan rejaqa muvofiq, mahalla va ovullarda 6 ming kilometr yo'l hamda 150 ko'priklar ta'mirlanadi. 5 ming kilometr elektr tarmog'i, 1 ming 350 transformator va 10 podstantsiya yangilanadi. 70 ming xonadonga ega 2 mingta ko'p qavatli uylar foydalanishga topshiriladi. Barcha ijtimoiy obyektlar va davlat idoralari hamda 17 ming xonadonga 55 megavatt quvvatli quyosh panellari o'rnatiladi.

Yettinchidan, aholi salomatligini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, Toshkentda mavjud bo'lgan barcha zamonaviy tibbiy xizmatlar Nukusda ham yo'lga qo'yiladi, olis va chekka ovullardagi tibbiyot xodimlariga 5 million so'mgacha alohida ustama beriladi.

Qoraqalpog'istondagi Onkologiya va radiologiya markazi filiali uchun yangi bino quriladi va eng zamonaviy uskunalar bilan ta'minlanadi. Uning hududida bemorlarning yaqinlari vaqtincha yashab turadigan yotoqxona barpo etiladi. Endi kelasi yildan Taxtakopir, Chimboy, Qorao'zak, Bo'zatov, Shumanay, Qo'ng'irotda ham 200 foizlik oylik ustama to'lash yo'lga qo'yiladi.

Davlatimiz rahbari faqat Qoraqalpog'iston uchun aholining statsionarda davolanish xarajatlari daromad solig'idan ozod qilinib, ijtimoiy reyestriga kirgan aholi order asosida Toshkent shahri yoki

ishsiz yoshlar bandligini ta'minlash sharti bilan tadbirkorlarga soliq va bojxona imtiyozlari taqdim etiladi. Ushbu markazda nafaqat ishlab chiqarish obyektlari, balki kasbga o'qitish markazlari, IT park filiali, loyiha ofislari joylashtiriladi.

To'qqizinchidan, Qoraqalpog'iston turistik hududga aylanmoqda.

Qoraqalpog'istonning Ellikqal'a, Qo'ng'iro't va Mo'ynoq tumanlari turizmga ixtisoslashtiriladi. To'rtko'l, Beruniy, Amudaryo, Xo'jayli, Qonliko'l, Qo'ng'irotda yo'l-savdo infratuzilmasi kengaytiriladi. Shu bilan birga, Toshkentdan Nukusga tezyurar poyezd qatnovi yo'lga qo'yilib, yo'lovchilarning manzila yetib borish vaqti 16 soatdan 7 soatgacha qisqaradi. Buning uchun uzunligi 465 kilometr bo'lgan "Buxoro — Urganch — Xiva" va uzunligi 196 kilometr bo'lgan "Miskin — Nukus" temir yo'l liniyalari elektrlashtiriladi. Bu loyihaga 460 million dollar yo'naltiriladi. Ushbu liniya ishga tushirilgach, "Toshkent — Samarqand — Buxoro — Xiva" an'anaviy turistik zanjiriga Qoraqalpog'iston ham qo'shiladi.

Natijada xorijiy va mahalliy say-yohlarning yurtimizda 4-5 kungacha bo'lishini ta'minlash, turistik xizmatlar eksportini 100 million dollarga yetkazish imkoniyati yaratiladi.

O'ninchidan, qoraqalpog' mahallalarida boshqaruv tizimi o'zgardi.

Prezidentimiz saylovchilar bilan uchrashuvda mahalla tizimida kutilayotgan bir qator yangiliklar haqida ham ma'lum qildi.

Jumladan, endilikda mahallaning moliyaviy mustaqilligini oshirish bo'yicha ham qator yangiliklar qilinadi. Bu borada aholidan yig'iladigan mol-mulk va yer



boshqa viloyatga davolanishga kelganda, ularga avia va temir yo'l xarajatlari to'liq qoplab berilishi bo'yicha aniq ko'rsatmalar berdi. Shu bilan birga, qoraqalpog'istonlik bolalarga yuqori texnologik operatsiyalar uchun homiylik qilgan tadbirkorlarning ushbu xarajatlari soliq undirish bazasidan chegirib tashlanishi ma'lum qilindi.

Sakkizinchidan, qoraqalpog'istonlik yoshlar — davlat himoyasida.

Ta'kidlanganidek, yoshlar uchun maxsus uy-joylar quriladi va kelgusi yetti yilda har yili 1 mingta yosh oilaga imtiyozli ipoteka kreditlari berilishi, buning uchun mazkur loyihaga Xo'jayli tumanidan birinchi bosqichda 100 gektar yer ajratilishi hamda 100 million dollar mablag' yo'naltirilishi aytiladi.

solliqlari yagona mulk solig'i bo'lib birlashadi va aholidan undiriladigan qismi mahalla byudjetiga to'liq o'tkaziladi. Bu Qoraqalpog'istondagi mahallalar ixtiyorida har yili 230 milliard so'm qo'shimcha mablag' qoladi, degani.

Prezidentimiz mamlakat aholisining mol-mulk va yer soliqlaridan qarzdorliklari bo'yicha 500 milliard so'm penya kechib yuborilishi (Qoraqalpog'istonda 20 milliard so'm) haqida aytganida Qoraqalpog'iston eli nihoyatda quvonadi. Shu bilan birga, mahallalar uchun "Ochiq byudjet" imkoniyatlari yanada kengaytirilib, unga ajratiladigan mablag'lar 3 karra oshirilishi ham katta yangilik bo'ldi. Ma'lum qilinishicha, endilikda "Ochiq byudjet" loyihalarida g'olib bo'lish uchun 1,5 ming ovoz yetarli bo'ladi va ushbu maqsadlar uchun yil yakuniga qadar yana 1,2 trillion so'm ajratiladi.

Biz hozir keyingi yillarda Qoraqalpog'istonda kuzatilgan ayrim o'zgarishlariga sanadik, xolos. Aslida, qoraqalpog' elining bugungi qiyofasi, ovul va qishloqlarimiz butkul o'zgacha chiroy ochgani, odamlarimiz hayotida bo'layotgan o'zgarishlar haqida ko'p va xo'p gapirish mumkin.

Bularni Prezidentimizning bitta istagi bilan ifodalasak: "Shu yurtda yashayotgan har bir insonning tinch va baxtli hayot kechirishi, uning sog'lig'i joyida bo'lishi, yaxshi ta'lim olishi, oilasini tebratishi uchun qanday sharoit kerak bo'lsa, hammasini yaratib berishga harakat qilayapmiz va bu yo'ldan aslo to'xtamaymiz".

Demak, biz katta yo'lning boshidamiz. Bu yo'lda hali yangidan-yangi tashabbus va g'oyalar yuzaga chiqariladi. Shunda yana bir bor shoirimiz so'ziga quloq tutgimiz keladi: "Ezgulik unib-o'ssin, Inson insonni suysin! Yo'qsa qanday yashaydi, Bir odamsiz bir odam?"



Boshlanishi 1-betda

Biroq shunisi aniqki, bugun xoh pishiqchilik mavsumi, xoh erta bahor yoki qish fasli bo'lsin, dasturxonimizda bu kabi ne'matlar mavjud. Demak, jarayon davom etmoqda. Ya'ni dehqonlar mehnat qilaypti, olimlarimiz izlanishda. Binobarin, vaqt kutib turmaydi. Har bir soha davr taqozosi bilan takomillashib, rivojlanib boraveradi. Bundan seleksiya ishlari ham mustasno emas.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida bu kabi ishlarini amalga oshirishda Sabzavot, poliz

xo'jaligining rivojlangan zamonaviy tarmog'iga aylandi. Ilm-fanga katta e'tibor qaratilayotgani bois, soha yanada rivojlanmoqda. Xususan, 2021-yilda institutimiz to'g'ridan-to'g'ri byudjetdan moliyalashtirish tizimiga o'tkazildi.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-sentabrdagi qarori bilan institut tuzilmasiga o'zgartirish kiritilib, laboratoriyalar soni 14 taga yetkazildi. Institutning Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy, Samarqand, Surxondaryo, Qashqa-



QR-kodni skaner qilish orqali videoqa o'ting!

larini yetishtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilyapti. Bunday tugunaklar keyingi bosqichlarda 5-6 taga ko'payishini inobatga olsak, bu kichkina raqam emas. Buni kartoshka importini kamaytirishga qaratilgan muhim qadamlardan biri, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Institut olimlarining sabzavot, poliz va kartoshka ekinlarini resurs va suv tejamkor, intensiv texnologiyalar asosida yetishtirish bo'yicha ishlarnalari ishlab chiqarishga izchil joriy qilinmoqda. Bular sirasiga poliz ekinlari urug'larini ekishdan oldin turli preparatlar bilan dorilab ekish, pomidordan ekologik sof mahsulot

Rossiyaning Sabzavotchilik Federal ilmiy markazi, O'zbekiston Sabzavotchilik ilmiy-tadqiqot instituti, Qozog'iston Meva-sabzavotchilik ilmiy-tadqiqot instituti, Vengriyaning Qishloq xo'jaligi va tabiiy fanlar universiteti, Yaponiyaning "The Musashino Seed Co. Ltd." kompaniyasi, Janubiy Koreyaning KOICA, KOPIA xalqaro markazlari, Turkiyaning Oqdeniz universiteti, "Merkez Anadolu Kimya", "Natural Zemin ve Peyzaj" va "Natural", "Anamas Tohum" kompaniyalari institutimizning yaqin hamkoriga aylangan.

Institut jamoasi o'z oldiga sabzavot, poliz va kartoshkachilik ilmini yanada rivojlantirish bo'yicha ulkan rejalarni belgilagan holda tadqiqot ishlari davom ettirmoqda. Vaholanki, bir muddat oldin institut jamoasining imkoniyati, izlanish uchun sharoit cheklangan edi. Aytaylik, shu paytgacha ilmiy izlanishlarda o'tgan asr texnologiyasidan foydalanib kelinardi. Endi institutimiz ham zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlandi. Zarur mablag' ajratilyapti, grantlar qo'lga kiritilyapti. Eng muhimi, bu ishlarga yoshlar kuchli intilmoqda. Buning sababi esa bitta: O'zbekistonda ilm ahliga e'tibor kuchaydi, ularning g'oyalari izchil qo'llab-quvvatlanyapti. Buning ortidan qishloq xo'jaligi ekin dalalari innovatsiyalar maydoniga aylanmoqda. Va bu eng to'g'ri yo'l. Chunki innovatsiya, tejamkorlik, samaradorlik kelajak talabidir.

Mutaxassislar bugun yer yuzida iqlim o'zgarishi, turli tabiiy ofatlar, suv tanqisligi, qurg'oqchilik kabi omillar oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishga ham o'z ta'sirini ko'rsatayotganini ta'kidlamogda. Bu esa sohaga ilmiy asoslangan ishlarnalarni jadal tatbiq qilishni taqozo etadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda yiliga 20 million tonnadan ortiq meva-sabzavot mahsulotlari yetishtiriladi. Xususan, joriy yilda 4 million gektar asosiy, bog'-tok qator oralari, lalmi va takroriy maydonlarda oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish belgilangan. Ya'ni bu yil dalalarimizda 8,1 million tonna boshqoli don, 528 ming tonna sholi, 579 ming tonna dukkakli, 345 ming tonna moyli, 12,2 million tonna sabzavot, 2,5 million tonna poliz, 4,1 million tonna kartoshka, 3,1 million tonna meva va 2 million tonna uzum yetishtirilishi kutilyapti.

Shuningdek, hududlarda dala chetlariga 71 mingta fermer xo'jaligi tomonidan mayi 59 ming gektar tut, tok, terak, mevali ko'chatlar hamda 24 ming gektar poliz, sabzavot va boshqa turdagi qishloq xo'jaligi ekinlari ekildi. Bulardan ko'rinadiki, yurtimizda aholini sifatlil oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlashga e'tibor jiddiy. Sohaga ilmiy yondashuv esa ishlar natijadorligini yanada oshiradi.

Dilshod ULUG'MURODOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

SELEKSIYA — OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIDA MUHIM YO'NALISH

ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot institutining alohida o'rni bor. Chunki mazkur dargohning to'qson yillik faoliyati davomida olimlar tomonidan respublikamiz qishloq xo'jaligi uchun ko'plab yangiliklar joriy etildi, yangi navlar yaratildi. Maqola boshida nomlari sanalgan mashhur navlar ham aynan mana shu ilm maskanida yaratilgan. Bugungi kunda mamlakatimiz qishloq xo'jaligida, xususan, seleksiya yo'nalishida qanday yangiliklar bor, qanday loyihalar yo'lga qo'yilmoqda? Bu borada ilm-fan va amaliyot uyg'unligining ahamiyati nimalarda ko'rinadi?

Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti direktori, qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor Rustam NIZOMOV bilan shular xususida fikrlashdik.

— Sabzavotchilik qishloq xo'jaligidan tashqari, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi, — deydi Rustam Nizomov. — Masalan, bugun dunyo bo'yicha sabzavot ekinlarining 1,5 mingdan ziyod turi bo'lsa, shundan 200 turi ommaviy tarzda parvarishlanadi. Ya'ni bugun insoniyat ovqat ratsionida 200 xil sabzavot mahsulotlari mavjud. Respublikamizda esa 50 ga yaqin turdagi sabzavot yetishtiriladi va iste'mol qilinadi.

Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti 1933-yil Respublika sabzavot stansiyasi negizida tashkil etilgan ko'lib, Respublika Prezidentining 2014-yil 10-fevraldagi va Vazirlar Mahkamasining 2021-yil oktabrdagi qarorlari bilan qayta tashkil etilgan.

Institutimiz sabzavot va kartoshkachilik bo'yicha yetakchi ilmiy muassasa hisoblanadi. Institutda olib borilgan ilmiy ishlarnalarni tufayli yurtimizda sabzavotchilik an'anaviy xususiy sektordan qishloq

daryo, Xorazm, Andijon viloyatlarida ilmiy-tajriba stansiyalari tashkil etildi.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 7-iyuldagi "A'gar sohada ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori esa olimlarimiz ishini yanada jadallashtirish, faoliyatini qo'llab-quvvatlashda yangi imkoniyatlarni yuzaga chiqaradi. Chunki unda O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil etish, agrar sohada ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan muhim maqsadlar ko'rsatib o'tildi.

Umuman, to'g'riqizda banddan iborat strategiyaning birinchi bandi oziq-ovqat xavfsizligiga bag'ishlangani ushbu vazifalar global ahamiyatga ega bo'lib borayotganidan dalolatdir. Shu bois, keyingi yillarda yerdan samarali foydalanish va ekin turlarini diversifikatsiya qilish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Ilm va amaliyot uyg'un bo'lsa...

Institutda 2016-yildan buyon sabzavot, poliz va kartoshka ekinlari seleksiyasi va urug'chilgini rivojlantirish bo'yicha 40 ta ilmiy loyiha, shu jumladan, 2022-2023-yillarda Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida 6 ta amaliy va 5 ta innovatsion loyiha bo'yicha tadqiqotlar olib borildi. Qovunning issiqxonada, ochiq maydonlarda ekiladigan eksportbop yangi navlarini yaratish, Xorazm viloyati tuproq-iqlim sharoitiga mos, serhosil va eksportbop mahalliy qovun navlari birlamchi urug'chilgini rivojlantirish, noan'anaviy

va eksportbop sabzavot ekinlari introduksiyasi va birlamchi urug'chilgini tashkil etish, organik dehqonchilikda tuproq unumdorligi va qishloq xo'jaligi ekinlarining kasalliklarga bardoshlilikni oshiruvchi nanomikrozarchalarni qo'llash agrotexnologiyasini yaratish kabi mavzulardagi amaliy hamda innovatsion loyihalar shular jumlasidan.

Umuman olganda, 37 ta ekin turining 280 ta mahalliy nav hamda duragaylari yaratilib, Davlat reyestriga kiritilgani e'tiborga molik. Shundan 199 tasi sabzavot, 69 tasi poliz, 12 tasi kartoshka navlaridir.

2022-yil misolida oladigan bo'lsak, sabzavot va poliz ekinlarining 12 ta, jumladan, achchiq qalampirning "Sharq gavhari", bamiyaning "Toshkent tufasi", piyozning "Hamal", "Qizil shahzoda", qovunning "Oftob", qulupnayning "Tong ifori", turpning "Murod", jambilning "Xushta'm", rayonning "Ixlos", bodringning issiqxona uchun "Ezgu G'1", batatning "Filial", pomidorning "Mustaqillik-28" navlari Davlat reyestriga kiritildi.

Intellektual mulk agentligidan bodringning "Musaffo", "G'alaba", artishokning "Janub go'zali", rokabning "Baraka", sarimsoqning "Janub", "Surxon vohasi", rayonning "Gulchaman" singari navlariga patent olindi.

Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti va uning ilmiy-tajriba stansiyalarida har yili sabzavot, poliz va kartoshkaning 32-35 ta navidan o'rtacha hisobda 200 tonna onalik sabzavotlar, 25-36 tonna sabzavot ekinlari urug'larini, 5-6 tonna poliz ekinlari urug'larini ishlab chiqariladi.

2023-yilda sabzavot va poliz ekinlarining 24 turi bo'yicha 34 tonna, kartoshkaning yuqori avlodli 300 tonna mahalliy urug'liklar ishlab chiqarish rejalashtirilgan.



Kartoshka dunyo miqyosida, shu jumladan, O'zbekistonda ham eng ko'p iste'mol qilinadigan mahsulotlardan hisoblanadi. Bugungi kunda bizda fermer xo'jaliklari va klasterlar uchun urug'lik kartoshkaga bo'lgan ehtiyojni qondirish imkoniyati yetarli emas. Shu bois, uni xorijdan import qilamiz. Yurtimizda har yili 300 ming gektar maydonga takroriy ekin sifatida zarur qishloq xo'jaligi ekinlari, xususan, kartoshka urug'larini qadallishi ham ana shu talabni ta'minlashga qaratilgan. Qolaversa, ekinlar hosildorligini oshirishda ilmiy yondashuv ham alohida o'rin tutadi.

Ayni paytda institut va uning tajriba maydonlarida birgina kartoshkaning 2,5 milliondan ziyod mikro va mini tugunak-

yetishtirish, yangi sabzavot ekinlaridan salatbop va bargli sholg'om yetishtirish, O'zbekistonning bo'z tuprog'ida sabzavot soyasi yetishtirish, kartoshkaning tezpis-har va o'rta tezpis-har navlari jadallashgan birlamchi urug'chilik texnologiyalarini kiritish mumkin.

Xalqaro hamkorlik samarasi

Institutda xorijiy aloqalarni kengaytirish bo'yicha ko'rilayotgan choralar diqqatga sazovor. Bu borada Xalqaro kartoshkachilik markazi, Turkiyaning hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi (TIKA), Yaponiya Xalqaro hamkorlik agentligi (JICA), Germaniya xalqaro hamkorlik tashkiloti (GIZ),

ham ishsiz ayollarning mavsumiy bandligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Denov tumanining Tasmaysoy mahallasida yashovchi Mahliyo Narzullayeva "Ayollar haftasi"da ro'yxatda turadi. U qandolat mahsulotlari oilaviy korxonasini ochishni reja qilgan. Yer ajratilishi esa uning orzulari ro'yobga chiqishida asqotadi.

— Mahallamizdagi hosildor joydan yer ajratib berildi, — deydi M.Narzullayeva. — Tayyor shudgorlangan yer, ekin urug'i bilan birga berilayotgani xarajatsiz daromad olish imkonini yaratadi. Takroriy ekindan mo'maygina foyda olib, uyda qandolatchilik bilan shug'ullanish uchun kichik korxona ochishni niyat qilganman. Mehnat qilgan, harakat qilgan odam daromad ham ko'rar ekan. O'tgan yili ham takroriy ekindan katta foyda olib, to'y qilgan edik. Bu dalalar menga begona emas. Shundoqqina ko'chamizning boshida. Bu yerning "issiq-suvog'i"ni yaxshi bilaman.

O'z Vatanimda mehnat qilmoqchiman

Muzrabot tumanida joriy mavsum g'alladan bo'shagan 10 ming 700 gektar

maydonga takroriy ekin ekish reja qilingan. Tumanda "Temir daftar"da ro'yxatda turuvchi 13 oila, "Yoshlar haftasi"da ro'yxatda turgan 189 nafar yosh, "Ayollar haftasi"dagi 109 xotin-qizga, shuningdek, 152 nafar mehnatga layoqatli ishsiz, migratsiyadan qaytgan 11 nafar fuqaroga yer maydoni ajratib berilgan.

— Ishsizligim tufayli chet davlatlarga borib ishlab kelardim, — deydi Muhammad Abdurahmonov. — Musofirchilikning noni qattiq bo'lar ekan. Ko'p qiyinchilik ko'rdik. Arizamga ko'ra, menga yer ajratib berishdi. Yerdan oladigan daromadim hisobiga mahallamizda tadbirkorlikni yo'lga qo'yimoqchiman. Bundan keyin xorijda emas, o'z Vatanimda mehnat qilishni niyat qildim. O'zga yurtida, yax yerlarda sog'lig'ingni yo'qotib ishlash, zararka hadik bilan tong otirish azob. O'z mahallamdan ajratilgan yer men uchun katta imkoniyat. Shu dala nafasidan to'yib katta bo'lganmiz. Qolaversa, mahalla faollari ham qarab turmaydi. Hosil mo'l bo'lishi uchun maslahatini ayamaydi.

Joriy yilda Surxondaryo viloyatida takroriy ekin maydoni o'tgan mavsumdagiga qaraganda ikki hissaga ortgan. Bu ichki iste'mol bozorini o'zimizda yetishtirilgan mahsulotlar bilan barqaror to'ldirish, qayta ishlash korxonalarini doimiy xomashyo bilan ta'minlash, shuningdek, dunyoda kuzatilayotgan oziq-ovqat tanqisligi bilan bog'liq murakkab davrda qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini yanada oshirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

Takroriy ekin yetishtirish mavsumi bir qarashda u qadar muhim jarayondek ko'rinmagani bilan yurtdoshlarimiz daromadini ko'paytirishda ham, mamlakatimiz iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda ham katta ahamiyatga ega. Shu bois, yurtimizda mo'l-kulchilik manbaiga aylangan sohani qo'llab-quvvatlash, rivojlantirish uchun davlatimiz tomonidan keng imkoniyatlar yaratilyapti.

Feruza JO'RAYEVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



QISHLOQ XO'JALIGI

TAKRORIY EKIN QO'SHIMCHA DAROMAD, TO'KINLIK MANBAI

Kuzi iliq — hosili bo'liq

G'alla hosili yig'ib olingandan keyin asosiy ekindan bo'shagan maydonlarga o'z vaqtida ishlov berish va ulardan takroriy ekin uchun foydalanish bugunning muhim vazifalaridan biri. Kuzi iliq va uzoq davom etadigan, sernam joylarda bu usul, ayniqsa, qo'l keladi.

Surxondaryo viloyati yerdan unumli foydalanish, yil davomida ikki, hatto uch marta hosil olish imkonini beradi. Viloyat g'allakorlari 15-20-iyungacha hosilni yig'ishtirib olgan taqdirda ham, undan keyin qariyb to'rt oy quyosh saxovatini zamindan ayamaydi. Bu esa donli ekinlar, sabzavot, poliz va kartoshka yetishtirish uchun ayni muddad.

Ma'lumotlarga ko'ra, joriy yilda g'alladan bo'shagan maydonlarni takroriy ekin uchun, avvalo, ijtimoiy daftarlarda ro'yxatda turgan 15 ming 453 nafar ishsiz, shuningdek, 14 ming 171 nafar mehnatga layoqatli, lekin bandligi ta'minlanmagan fuqarolar hamda 961 migrant va ularning oila a'zolariga berish reja qilingan.

Dehqon uchun har daqiqaga g'animat. Buni to'g'ri anglagan fermer xo'jaliklari va klasterlar hosili yig'ib olingan yerlarni tezda shudgorlab, foydalanish uchun aholiga ajratib bermoqda. Denov tumanida ham tasdiqlangan manzilli reja va yo'l xaritasiga ko'ra, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning 6 ming 400 nafardan ortiq a'zolariga dehqonchilik xo'jaliklari tashkil qilish uchun 9 ming 77 gektar yer maydoni ajratib berildi. Ahamiyatli tomoni, mavsumiy foydalanish uchun yer olgan har bir fuqaro ortidan uning o'zi kabi ishsiz kamida besh nafar qarindoshining ham bandligi ta'minlanadi.

Qishloq odamlari tanti, jo'mard, mehnatkash bo'ladi. Ayni saraton jazirasiga qaramasdan, bozorlarimiz to'kinligi uchun g'alladan bo'shagan maydonlarga takroriy ekin ekilyapti.

Bilasiz, qishloqlarda "bekorchilarni" topish qiyin. Deyarli barchaning tomorqasi bor. Qolaversa, mamlakatimizda boshqoli don ekinlaridan bo'shagan maydonlardan samarali foydalanish maqsadida yangi tizim yo'lga qo'yildi. Bu oilasi uchun qo'shimcha daromad topish istagida bo'lgan, ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj yurtdoshlarimiz uchun ayni muddad bo'lmoqda. Shuning uchun ham bunday joylarda ishsizlik masalasi deyarli muammo emas. Bu borada eng maqbul yechim, yuqorida aytganimizdek, yerdan unumli foydalanish.

Yoz fasli kelib, bug'doy o'rimi boshlanadigan avvalgi yillarni yaxshi eslaymiz. Qishloqdagi qarindosh-urug'lar doim bir muammodan yozg'irib qolardi. Takroriy ekin mavsumidagi yer taqsimoti tor doirada, pala-partish hal qilib yuborilardi. Yer egasi yerini tanishlariga yoki boshqalarga sheriklikka

berardi. Tabiiyki, sheriklik kelishuvi doirasida olingan hosil ikkiga bo'linardi, ya'ni ketmon chopib ter to'kkan dehqon daromadining yarmini yer egasi bilan bo'lishishga majbur edi.

Bugungi kunga kelib esa vaziyat tamoman o'zgardi. So'nggi yillarda sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida yer muno-sabatlari tartibga solinyapti.

Jumladan, joylarda aholiga yer maydonlari "3+1" dasturi asosida ajratilmoqda. Tizim orqali xalqimiz, ayniqsa, "Temir daftar", "Ayollar haftasi" va "Yoshlar haftasi"ga kiritilgan ishsiz fuqarolar, yerga ehtiyojmandlarga takroriy ekin yetishtirish orqali qo'shimcha daromad topish imkoniyati yaratilyapti. Mazkur xayrli tashabbus kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishga xizmat qilayotgani bilan yanada ahamiyatli.

KAMBAG‘ALLIKNING BOSHI HAM, ILDIZI HAM ISHSIZLIK

Salohiddin SAMADOV,
Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi
Jamoat ishlari jamg‘armasi ijrochi direktori

Mehnatning turi ko‘p. Kimdir aqliy faoliyat bilan shug‘ullanib daromad topsa, boshqa birov jismoniy mehnat ortidan oila tebratadi. Har qaysi mehnat ham mashaqqatli va albatta, halol, ter to‘kib topilgan non uyga baraka bo‘lib kiradi. Muhimi, inson ishsiz, daromadsiz qolmasin, to‘rt muchasi sog‘ bo‘la turib, boshqalarga boqimanda bo‘lmasin.



Bugun mamlakatimizda ana shu maqsad o‘laroq, xalq farovonligi, aholi bandligi, fuqarolarning munosib yashash sharoitiga ega bo‘lishini ta‘minlash asosiy vazifalardan biriga aylangani boisi ham shunda. Bu borada yaqin yillarda yaratilgan va jahonda muqobili topilmaydigan “mahallabay” ishlash tizimi alohida o‘ringa ega. Aholining yashash sharoiti va mavjud muammolari shu tizimning o‘zida o‘rganilib, zarur yechimlar berilyapti. Mahallalar yurtimizdagi deyarli barcha davlat idoralari, nodavlat tashkilotlar va tegishli korxonalar bilan hamkorlikda ishlab, har bir fuqaro bandligini ta‘minlashga intilmoqda. Kam ta‘minlangan oilalarga ko‘maklashish, qandaydir sabablari bilan ishsiz qolgan yurt-doshlarimiz bandligini ta‘minlash nafaqat moddiy ko‘mak, balki doimiy daromad manbayini yaratish ustuvor vazifalardan biriga aylandi.

Davlatimiz rahbari shu yilning 14-iyul kuni Prezidentlik lavozimiga kirishishga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida ham “Tadbirkorlik uchun yanada qulay imkoniyatlar yaratib, yangi-yangi ish o‘rinlari ochish, aholi daromadlarini ko‘paytirish, yoshlar va xotin-qizlarni zamonaviy kasb-hunarlariga o‘qitish, ularning bandligini oshirish e‘tiborimiz markazida bo‘ladi”, deya ta‘kidlagani bejiz emas. Bunda fuqarolarning ehtiyojmand qatlamlari, nogironligi bo‘lgan shaxslar, yolg‘iz keksalarni qo‘llab-quvvatlash, kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqish maqsad qilingan.

Odamlar bandligini ta‘minlashning yo‘nalishlari ko‘p. Shulardan biri ishsiz va band bo‘lmagan fuqarolarni vaqtinchalik, malaka talab qilmaydigan haq to‘lanadigan jamoat ishlarga jalb qilishdan iborat. Buni amalga oshirayotgan katta tizimning bir qismi, deyish mumkin. Va so‘nggi yillarda bu yo‘nalish sezilarli tarzda kengayib bormoqda. Chunonchi, malaka talab qilinmaydigan haq to‘lanadigan jamoat ishlari tashkil qilinishi ish topishda qiynalayotgan aholi qatlamlari, xususan, “Ayollar daftari”, “Yoshlar

daftari”ga kiritilgan oilalar, ishsiz xotin-qizlar, yoshlar, mehnatga layoqatli fuqarolarning bandligiga ko‘maklashishda muhim o‘rin tutmoqda. O‘ylkning o‘z vaqtida berilib, tizimda shaffoflikning yaratilgani esa muhtoj oilalarga ko‘mak bo‘lyapti, odamlarning jamoat ishlari qatnashib, daromad topishga ishonchi ortmoqda.

Chunki mehnatiga yarasha haq topmagan yoki tun-u kun ishlab, oyligini o‘z vaqtida olmagani insonning ishidan ko‘ngli soviydi. Ana shunday holatlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Jamoat ishlari jamg‘armasi tomonidan jalb qilingan ishsiz va band bo‘lmagan fuqarolarga oylik ish haqlari to‘liq jamg‘arma mablag‘lari hisobidan moliyalashtirib kelinmoqda. Birgina joriy yilning olti oyida jamg‘arma tomonidan 54,7 milliard so‘m mablag‘ oylik ish haqlari uchun o‘rnatilgan tartibda moliyalashtirib berilgani buning yaqqol misoli.

Tanlov har kimning o‘zida

Jamoat ishlari deganda, ko‘pchilik obodonlashtirish yoki shunga o‘xshash ishlarni tushunadi va u yerda ishlashga rozi bo‘lmaydiganlar ham yo‘q emas. Ammo bugungi kunda mahalla, tuman, shaharlar kesimida haq to‘lanadigan jamoat ishlari yo‘nalishi, turi ancha kengaymoqda. Mavsumiy qishloq xo‘jaligi ishlari, chorva-nasl tarmog‘ini rivojlantirish, sanoat tarmoqlari va xizmat ko‘rsatish sohasi, paxta o‘rtaq rahbarlari, obyektlarni qurish va rekonstruksiya qilish, ikkinchi jahon urushi qatnashchilariga patronaj xizmati ko‘rsatish kabilar shular jumlasidan. Mahalla obodligi yo‘lida ko‘chalarni obodonlashtirish, shag‘al yotqizish bilan shug‘ullanayotgan fuqarolarga ham jamg‘arma mablag‘lari hisobidan haq to‘lab kelinmoqda.



BANDLIK

Fuqarolar vaqtinchalik jamoat ishlarga o‘z istak va qiziqishlari asosida yo‘naltiriladi. Tartibi esa oddiy: vaqtincha yoki doimiy ishsiz fuqaro o‘z hududidagi Aholi bandligiga ko‘maklashish markaziga murojaat qiladi. Unga haq to‘lanadigan bir qancha ish turi yoki tadbirkorlik yo‘nalishlari taklif etiladi. Fuqaro ixtiyoriy tarzda ulardan birini tanlaydi va ishga kirishadi.

Jamoat ishlari haqida gap borganida, yaqin yillargacha ko‘pchilik majburiy mehnatni tushunib kelgani ham rost. Aslida, jamoat ishlarning aksari turli soha vakillarini jalb qilish hisobiga amalga oshirib kelingan. Ammo yangi O‘zbekistonda majburiy mehnatning har qanday turiga to‘liq barham berilgach, jamoat ishlari munosib haq to‘lanadigan tizim, aholi bandligini ta‘minlashning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Endilikda hududlarni obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish ishlarida ijtimoiy soha vakillari emas, balki haq to‘lanadigan maxsus xodimlar ishlayapti. Bu borada turli davlat tashkilotlari bilan o‘zaro kelishuvlar ham imzolangan. Maqsad — majburiy mehnatning oldini olish va har kim o‘z ishi bilan mashg‘ul bo‘lishini ta‘minlash.

Jamoat ishlari jamg‘armasining vazifasi nafaqat ishsiz aholi bandligini ta‘minlash, shuningdek, odamlarni tadbirkorlikka yo‘naltirish, o‘z faoliyatini kengaytirishga ko‘maklashishdan ham iborat. Ya‘ni jamg‘arma mablag‘lari hisobidan dastlabki ishini boshlash uchun zarur bo‘ladigan mini texnika, inventarlar xarid qilinib, foizsiz ijara asosida berish yo‘lga qo‘yilgan. Bularning

hisobiga o‘tgan yilning o‘zida tadbirkorlik subyektlariga umumiy qiymati 7,1 milliard so‘mlik 1 ming 234 dona asosiy vosita va jihozni ijara bera berish orqali 1 ming 905 nafar ishsiz xotin-qiz va yoshlarning doimiy bandligi ta‘minlandi.

Joriy yilning birinchi yarmida ham natijalar kutilganidan yuqori. Bu davrda Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan 28 korxonaga umumiy qiymati 6,2 milliard so‘mlik 790 dona asosiy vosita va inventar ijara berildi. Ular orasida tikuv mashinalari, motokultivator, mini uskunalar bor. Ijaraga berilgan inventarlar orqali ishsiz 963 fuqaroning doimiy bandligi ta‘minlandi. Ularning ko‘pi ijtimoiy ro‘yxatlarda turgan. Bu insonlarning doimiy daromad manbayiga ega bo‘lishi ortidan 417 oila kambag‘allikdan chiqarilgani asosiy yutuqlarimizdan biridir.

Yoshlar “Hayot maktabi”da toblanadi

Maktabni tamomlagan o‘g‘il-qizning oldida ta‘limni davom ettirish yoki biror kasb-hunarni egallab, mehnat bozoriga kirib borish maqsadi turadi. Aksariyat yoshlar ta‘limning keyingi bosqichiga o‘qishga kirguniga qadar, ayrimlar maktabning yuqori sinfiga o‘tib, yozgi ta‘lilda bir muddat ishlab turishni ham afzal ko‘radi. Ammo bu yoshdagi yigit-qizlarda tajriba yo‘qligi sabab hamma ham ishga olavermasligi bor gap.

Davlatimiz rahbari joriy yil 15-fevral kuni yoshlar bandligini ta‘minlash va bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishda ayni shu masalaga to‘xtalgani bejiz emas. Boisi, aholi bandligini ta‘minlash deganda, har bir fuqaro, jumladan, maktab bitiruvchilari ham e‘tiborga olinadi. Aniqrog‘i, bitiruvchilarni kasb-hunarga o‘rgatib, katta hayotga tayyorlash va bir yo‘la ish bilan ta‘minlash hozir har qachongidan dolzarbroq. Shu bois, Prezidentimiz “Hayot maktabi” dasturini amalga oshirish tashabbusini ilgari surdi va joriy yildan ushbu tizim ilk bor ishga tushdi.

Bunda maktab bitiruvchilari o‘z ixtiyoriga ko‘ra, “mahalladan vazirlikkacha” tizimi orqali davlat idoralarga birlashtiriladi. Masalan, tikuvchilikka qiziqadigan qizlar tekstil korxonalari, hunarmandlik, novvoylik yoki istalgan yo‘nalishni tanlagan yigitlar esa o‘sha tarmoqdagi tadbirkorlarga shogird qilib beriladi. Ular korxonalarda ham hunar egallab, ham daromad topadi.

Ana shunday korxonalarga Jamoat ishlari jamg‘armasi tomonidan ijara asosida taqdim etiladigan inventarlarning ijara to‘lovlari imtiyozlar berilyapti. Bu, albatta, yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Qolaversa, korxonaning imkoniyatlari qancha kengaysa, shuncha ko‘p yoshning bandligini ta‘minlashga hissa qo‘shadi. Bu xayrli ishga bajonidil qo‘shilayotgan korxonalar soni ortib borayotgani, ayniqsa, quvonarli.

Masalan, Navoiy viloyati Qiziltepa tumanida joylashgan “Vang‘ozi humo textile” MCHJda tumandagi 12-umumta‘lim maktabining 20 nafar, Buxoro tumandagi “Begoyim mohir qo‘llari” MCHJ korxonasida 44-umumta‘lim maktabining 6 nafar,



Qoraqalpog‘iston Respublikasi Chimbay tumandagi “Montaj Silver” MCHJda 38-umumta‘lim maktabining 5 nafar o‘quvchi qizlari usta chevaralarga birlashtirilib, kasb-hunar o‘rganmoqda. Yoshlar mehnatiga yarasha daromad ham topyapti, asosiysi, bo‘sh vaqtini bekor o‘tkazmayapti. Shu kabi misollarni har bir hududidan keltirish mumkin.

Bu o‘rinda majburiy mehnatga yo‘l qo‘ymaslik holatlari doimiy nazoratda bo‘ladi. Gap shundaki, odamlarni haq to‘lanadigan ishlarda majburiy ishlatish yoki mehnatidan foydalanib, haqini bermaslik qonuniy chora ko‘rishga sabab bo‘ladi. Xususan, Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga kiritilgan o‘zgartishlarga ko‘ra, haq to‘lanadigan jamoat ishlarga majburiy ravishda jalb etish nomli yangi jazo joriy etilgan. Bunda haq to‘lanadigan jamoat ishlarga majburiy ravishda jalb etish — huquqbuzarni ijtimoiy foydali jamoat ishlari bajarishga majburiy ravishda jalb etishdan iborat bo‘lib, ular ish haqining 50 foizi ailment majburiyatlarini bo‘yicha qarzni to‘lashga yo‘naltirilishi belgilandi. Haq to‘lanadigan jamoat ishlari pensiya yoshiga yetgan, o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslarga, homilador ayollarga, uch yoshga to‘lmagan bolalari bor ayollarga, birinchi va ikkinchi guruh nogironlil bo‘lgan shaxslarga, doimiy ishga ega shaxslarga, harbiy xizmatchilarga nisbatan qo‘llanilmasligi ham alohida belgilangan.

Tadbirkorga yordam — xalqqa yordam

Hozirgi vaqtda tadbirkorlarning jahon bozoriga chiqishi ancha osonlashgan. Dunyo mamlakatlari bilan yaqin hamkorlik biznes vakillari o‘rtasidagi xalqaro kelishuvlar ko‘lamlining ortishiga xizmat qilayapti. Shu bois, Jamoat ishlari jamg‘armasi faoliyati ham yurtimizda cheklanib qolmasdan, xorij davlatlariga chiqib bormoqda. Chet ellik hamkorlar bilan ish olib borish orqali tajriba oshirish maqsad qilingan.

Asosiy hamkor davlatlarimizdan biri esa Xitoy. Shu yilning iyunida delegatsiyamiz ushbu mamlakatga borib, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha Xitoy tajribasini o‘rganib qaytdi. Ushbu tajribani yurtimizda tatbiq etish bo‘yicha takliflar ham ishlab chiqilgan.

Xalqaro faoliyat doirasida amaliy harakatlarni ham faollashtirib boryapti. Jumladan, Jamg‘arma ko‘magida Turkiyaning yirik kompaniyalaridan biri bo‘lgan “Teskma tekstil makina” kompaniyasi hamda O‘zbekistonning “Dima tekstil ros” MCHJ o‘rtasida 140 ming dollarlik investitsiya shartnomasi imzolandi. Kelishuvga ko‘ra, xorij kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan to‘quv dastgohlari lizing shartnomasi asosida yetkazib berildi.

Xuddi shunday shartnoma Andijon viloyati Buloqbooshi tumandagi “Yuksak rivoj qurilish” hamda Izboskan tumandagi “Omina tekstil” MCHJlar bilan ham imzolangan. Investitsiya shartnomasining umumiy qiymati 300 ming dollar bo‘lib, belgilangan to‘quv dastgohlari o‘z vaqtida yetkazib berildi. Yaqin kunlarda Toshkent viloyati Qibray tumandagi “Helen tekstil” MCHJ korxonasiga ham Turkiyadan qiymati 407 ming dollarlik 10 dona to‘quv dastgohi keltirilishi kutilmoqda.

O‘zaro hamkorlikdan mahalliy tadbirkorlarimiz qatorida turk hamkorlarimiz ham mamnun. Ular, ayniqsa, bu loyihalar biznes vakillariga ko‘mak sifatida tashkil etilayotganidan hayron qolganini yashirmadi: “Men O‘zbekiston xalqining bir-birlarini qo‘llab-quvvatlashi, tadbirkorlarga keng imkoniyatlar yaratib berish orqali aholini ish bilan ta‘minlab, kambag‘allikka barham berish uchun astoydil bel bog‘laganlaridan hayratdaman”, deydi “Teskma tekstil makina” kompaniyasi vakili Usmombey Eroglu.

Haqiqatan, bu loyihalar mahalliy ish-bilarmonlarimizga ko‘mak berish orqali aholi bandligini ta‘minlashga qaratilgan. Chunonchi, diyorimizda tadbirkorlar qancha ko‘p bo‘lsa, ularning erkin ishlashi uchun keng sharoitlar yaratilsa, shuncha ko‘p odam ish bilan ta‘minlanadi. Bitta korxona ortidan qancha oila daromad topishi, shu orqali qozonini qaynatishi mumkin. Bunday korxonalarining ko‘pligi esa xalq farovonligi, hududlar rivoji va albatta, yurtimizning iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qiladi.

TIBBIYOT YUTUQLARI

BIROR BEMOR NOUMID QAYTMAYDI

BUNING UCHUN ZAMONAVIY SHAROIT VA SALOHİYAT YETARLI

Yurak — tiriklik manbayi. Hayotimiz uning izmida kechadi. Agar me‘yoriy urishida o‘zgarish yuz bersa, qon haydash jarayoni buzilsa, ko‘rsidagi tayanchimiz xastalardan ogohlanirishdir. Inson ko‘ksidagi “do‘sti” haqida ham astoydil qayg‘urishi kerak. Albatta, bu borada tajribali shifokorlarning ko‘magisiz, muolajalarisiz, jarrohlik amaliyotisiz maqsadga erishish mushkul.

Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Namangan filiali jamoasi ana shunday chuqur bilimli, yuqori malakali shifokorlardan iborat. Ular kechagi yutug‘i bilan kifoyalanib qolmay, betinim izlanish, yangiliklarni, dunyo tajribasini o‘zlashtirish orqali jahon andozalari darajasida tibbiy xizmat ko‘rsatishni faoliyatlarini mezoniga aylantirgan. Ayni paytda filial mutasaddilari xorijdagi nufuzli tibbiyot markazlari va mutaxassislar bilan hamkorlikni yanada kengaytirish, investitsiya jalb qilishga intilmoqda. Jumladan, Avstriyadagi hamkorlar bilan ham muayyan natijaga erishildi.

— O‘tgan yili bahorda viloyatimiz homimi boshchiligidagi guruh tarkibida Venaga yetib bordik. Dastlabki kunioyq Avstriyaning “Uni Gredit” banki departamenti direktori oldida shifoxonamiz modernizatsiyasi bo‘yicha taqdimot o‘tkazildi.

Unda angiograf apparatini o‘rnatish rejasini bayon qilingan edi. Shuningdek, AQSHda ishlab chiqarilgan muhim uskunani olish masalasi kun tartibiga qo‘yildi va ijobiy kelishuvlarga erishildi, — deydi Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy markazi Namangan filiali direktori, tibbiyot fanlari nomzodi Solijon Mo‘minov. — 2022-yil 10-14-may kunlari hamkorlik memorandumini imzolangan bo‘lsa, oradan bir yil o‘tib, kelishuvlar deyarli to‘liq amalga oshdi. Filialimizga Avstriyaning “AME International” kompaniyasi yetkazib berishi kerak bo‘lgan qiymati 8,89 million yevrolik apparat va jihozlarning 80 foizi keltirib o‘rnatildi. Bu yil sentabr oyi oxirigacha loyiha bo‘yicha 65 turdagi 350 apparat va jihozdan to‘liq foydalanish imkoniyati paydo bo‘ladi. Ularning barchasi dunyodagi eng so‘nggi rusumli texnologiyalardir.



Xalqimizning “Ish quroling soz bo‘lsa, mashaqqatning oz bo‘lar” degan naqli naqadar to‘g‘ri ekanini filial faoliyati misolida ham yana bir bor o‘z isbotini topmoqda. Shifoxonaning moddiy-texnik bazasi boyib, mustahkamlanib borar ekan, yangi o‘rnatilgan zamonaviy va murakkab tibbiy apparatlarni boshqara oladigan iqtidorli kadrlarni tayyorlashga ham muhim vazifa sifatida qaratilmoqda. Jumladan, joriy yilning yanvarida filialning to‘rt nafar jarrohi Belarus Respublikasidagi klinikalarda tajriba oshirib qaytdi. Iyun oyida yana ikki nafar Chexiyada malaka oshirdi. Sentyabrda esa uch nafar mutaxassisni Avstriyaga yuborish mo‘ljallangan.

Yilning to‘rtinchi choragida Hindistonga safar uyushtirildi. U yerda o‘zbek jarrohlari dunyoga mashhur klinikalarda hamkasblari bilan yonma-yon faoliyat yuritib, ko‘plab murakkab amaliyotlarni nozik sir-asrorlarga o‘zlashtirishni maqsad qilgan. Yil oxiriga borib, Namanganda tibbiyot sohasidagi o‘ta murakkab operatsiyalarni muvaffaqiyatli davom ettirish va izchilligiga erishish mumkin, deyishga asoslar yetarli.

Markazning Rentgenendovaskulyar xirurgiya bo‘limi mudiri, tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori Akmaljon Jalilovning yaqinda Chexiyaning Praga shahrida malaka oshirish chog‘ida o‘zi ishlayotgan

bo‘limdagi sharoitlarga mavjud holatni taqqoslab ko‘rgach, beixtiyor direktorga telefon orqali hayajon bilan aytgan quyidagi iqtiroi ham kishini befarq qoldirmaydi:

— Solijon Jalilovich, Namanganda ham Praga va Berlindagidek sharoit va imkoniyat yaratilgan ekan. Hech mubolag‘asiz, Yevropa bilan bo‘ylashyapmiz! Bundan buyon biz ham chet ellik mutaxassislardak ishlasak, biror bemor markazimizdan yordamsiz qaytmaydi.

Namanganlik kardiologlar, kardioxirurglar jahonning manaman degan olimi mutaxassislardan qolishmayapti. Tibbiyot tobora rivojlanayotgan, jarrohlik amaliyotiga eng ilg‘or innovatsiyalar joriy etilayotgan palлада ular faqat o‘qib-o‘rganish, yangiliklarni izlash, operatsiya jarayoniga yangi usullarni tatbiq etishda davom etyapti. Shu bois, filiald olimlar safi tobora kengaymoqda. Hozir muassasada 4 nafar fan nomzodi, tibbiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori ishlayotir. Ilmiy tadqiqotlarni yoqlashga tayyorlayotganlar ham ko‘paymoqda. Ilgari namanganlik kardiojarrohlarni poytaxtdagi hamkasblaridan namuna olgan bo‘lsa, bugun katta orzuniyatlar bilan jahonga chiqishga intilmoqda.

O‘ta murakkab, o‘ta nozik tibbiy-xirurgik amaliyotlarga onkojarrohlik hamda neyrojir-

rohlik qo‘shilayotganiga taajjublanishga aslo hojat yo‘q. Keyingi paytda tibbiy transformatsiya jarayoni ketmoqda. Hatto bu borada vodiya birinchi bo‘lib miya qon tomirlaridagi nuqsonlarni jarohatsiz jarrohlik usulida bartaraf etishga xuddi shu filialda kirishildi. Qozog‘istonlik oliy toifali neyroxirurg Minjilqi Berdixoy‘yev ishtirokida uyqu arteriyalarini stentlashga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy konferensiya ham o‘tkazildi. Mutaxassis faqat nazariy ma‘lumot berish bilan cheklanib qolmadi. Mahorat darsi tarzida namanganlik hamkasblari bilan birga uch nafar bemorning hayotiga ching solib turgan xavfni muvaffaqiyatli bartaraf qildi.

Filialdagi salmoqli ijobiy o‘zgarishlar tibbiyot turizmini rivojlantirishga ham keng yo‘l ochadi. Yevropa andozasi darajasida, dunyoga mashhur olim-shifokorlarning davolash borasidagi sabog‘ini olgan, mahorat maktabini o‘tagan zehni o‘tkir, qo‘li yengil shifokorlar doim bemorlar dardiga malham bo‘lmoqda. Ana shunday mohir mutaxassislar jamuljam bo‘lgan mazkur shifo maskanida ne-ne og‘ir xastalar oyoqqa turib, sog‘lom va halovatlil turmushga qaytyapti. Hozir viloyat ahidan tashqari mamlakatimizning boshqa hududlaridan ham shifo izlab keluvchilar soni oshyapti. Shuningdek, qo‘shni Tojikiston va Qirg‘iziston, hatto Rossiya Federatsiyasidan davolanish uchun kelayotganlar ko‘payyapti. Bu Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Namangan filiali murakkab jarrohlik amaliyotlarini o‘tkazish borasida yangi bosqichga qadam qo‘ygandigan dalolatidir.

Sodiq SAYXUN,
jurnalist



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz

SHOIRNING SUYANCH QOYASI — Vatan!



O‘zbek xalqiga havasim keladi. Sizlar buyuk shoir Alisher Navoiyning vorislarisiz, ulug‘ millatning farzandlarisiz, katta tilning egalarisiz. Bu bilan faxrlanishingiz, xalqingiz, tilingiz kamoliga xizmat qilishdan charchamasligingiz kerak.

Rasul HAMZATOV

Mashhur avar shoiri Rasul Hamzatovning “Mening Dog‘istonim” kitobi ona tilimizda chop etilganiga o‘n besh yildan oshdi va hamon o‘quvchilar tomonidan sevib o‘qilyapti. Chunki sevimli shoirimiz Abdulla Oripov kitobga yozgan so‘zboshisida ta’kidlaganidek: “Kitobda yuzlab, minglab yombi fikrlarni, hikmatlarni uchratish mumkin”. Bugun gazetxonlarimizga kitobdagi ana shu yombi fikr va hikmatlarning ayrimlarini havola etyapmiz.

Tug‘ilgan uyimdan birinchi bor uzoq safarga yo‘l oldim. Onam tokchaga chiroqni yoqib qo‘ydi. Men ketar ekanman, ortga qaradim, yana yo‘l bosib ortga qaradim, tumanlararo derazamiz tokchasidagi chiroq yug‘dusiga ko‘zim tushdi.

Shu kichkina derazadan taralgan yog‘du mamlakatlar osha, yillar osha mening yo‘limni yoritib turdi. Men tug‘ilgan uyimga qaytib kelgach, shu kichkina derazadan tashqariga qaradim. Ko‘z oldimda bepoyon dunyo, o‘tgan yo‘llarim, yillarim gavdalandi.

Qayga bormay, ona yurtimga o‘xshash jihatlarni izlayman. Hindistonga safarim chog‘ida ham Dog‘iston haqida o‘yladim. Bu mamlakatning qadim madaniyati va falsafasi sirli ovozda ona yurtim haqida shiirladi. Mening bu gaplarimga ishonangiz bo‘ladi, chunki endilikda dunyoning hamma joyida Dog‘iston haqida eshitish mumkin. Shunday zamonlar ham bo‘lgan “Dog‘iston” so‘zi kim-sasiz dara va cho‘llarda aks sado bergan. Endilikda bu so‘z butun mamlakatda, dunyoda jaranglab, millionlab yuraklardan joy oldi.

Men Dog‘istonim haqida Nepaldagig yigirma ikkita shifobaxsh bulog‘i bor budda ibodatxonasida ham o‘yladim. Ammo Nepal misoli sayqallangan olmos, shu bois, uni Dog‘iston bilan qiyoslay olmayman. Chunki Dog‘iston o‘lmoslari bilan endigina bir necha oyna kesildi.

Men Dog‘istonim haqida Afrikada ham o‘yladim. U menga chorak qismi qindan sug‘urilgan xanjamini eslatdi. Boshqa mamlakatlar — Kanada, Chili, Angliya, Ispaniya, Yaponiyada bo‘lganida ham Dog‘istonim haqida o‘yladim, ular o‘rtasidagi o‘xshashlik va tafovutlarni izladim.

Kunlarning birida Xorvatiya bo‘ylab qilgan safarim chog‘ida Adriatika dengizi sohiliidagi Dubrovnik shahriga bordik va bu shahar meni hayratga soldi. Bu shahardagi uy va yo‘laklar daradagi qoyalarni va tog‘ so‘qmoqlarini eslatardi, har joyda toshli maydonchalar bor edi, uylarning eshiklari xuddi o‘yilgan g‘or og‘ziga o‘xshab ketardi. O‘rta asrlarga xos bu uylar va yodgorliklar qarshisida zamonaviy binolar qad rostlagandi.

Butun shahar bizzning Darbandga o‘xshab toshlar bilan o‘ralgandi. Tor yo‘laklarda devorlarni ushlab, toshli zinapoyalardan yurdim. Devor bo‘ylab bir xil masofada minoralar qurilgandi. Har bir minora tepa qismida inson ko‘ziga o‘xshash ikki shinak bor edi. Go‘yo bu minoralar imonning muttasil qo‘riqchilik qiladigan sergak muridlarga o‘xshardi.

Men devorga suyanib, bitta minoraning shingidan ichkariga qaramoqchi bo‘ldim. Yo‘lakda turistlar tinimsiz qatnayotgani uchun tounukka qaytarilishishga imkon bermadi. Uzoqdan shinaklarda ko‘k narsani ko‘rdim. Bu ko‘k narsa tynuk o‘lchami bo‘lib, kattaligi kaftday kelardi.

Bir amallab shinakka yaqinlashdim, tynukdan qarab hayratlanib qoldim, tashqarida Adriatika dengizi yanvar quyoshi nurlarida jilolalanardi. Dengiz faqat ko‘m-ko‘k emas, turli ranglarda tovlanardi. To‘lqinlar shovillab tosh devorga urilar va yana gumburlab orqaga qaytardi. Dengizda kemalar suzardi, har biring kattaligi bizzning ovulimizcha kelardi.

Men qancha vaqt katta olamni ko‘rish uchun turnaqator turistlar orasida navbatda turdim va nihoyat tynukni yaqinlashib, uzoqlarga qaragan paytimda yana Dog‘istonimni o‘yladim.

Axir u ham o‘z navbatini kutib turnaqator-da turdi. Unga ham oldida turgan baxtiyorn-

ing baland yelkasi xalaqit berdi. Endi u o‘z urf-odatleri, qo‘shiqlari, madaniyati qadriyatleri bilan keng olamga yo‘g‘rilib ketdi.

MAVZU HAQIDA. Menga bolaligimdan bitta manzara yoqadi. Ota makon uyimning derazasi ochilishi bilan tog‘ yon bag‘ridagi yam-yashil kenglik ko‘rinadi, go‘yo ovul oyog‘i ostiga yozilgan poyandoz. Qoyalarga unga ta‘zim bajo qilib qarab turganday tuyuladi. Bolaligimdan tog‘ yon bag‘ridagi so‘qmoqlar ilonlarni, daradagi g‘orlar yirtqichlarning og‘zini eslatadi. Olis tog‘larning qoyalari bir-biriga suyanib olgan. Tepalari dumaloq, qoramtir, tuyaning junli o‘rkachiga o‘xshaydi.

Endi-ku bilaman, Shveysariya yoki Nepal tog‘larida bundan chiroyli manzarali joy-



Shoirilar ko‘p, ularning ko‘pchiligi o‘zlarini shoirman deb o‘ylaydi. Ammo Rasul Hamzatovga o‘xshashlar noyob hodisa. Hamzatov betakror va yagona bo‘lgani uchun azizdir.

**Chingiz AYTMATOV,
qirg‘iz yozuvchisi**

lar bor. Lekin qayerda bo‘lmay, qaysi tabiat go‘zalligiga qaramayin, ko‘rganlarimni bolaligimda ota makon uyimning derazasidan xayolimni o‘g‘itilgan manzaraga solishtiraman va ko‘z oldimda qarshimdagii namoyon tabiat go‘zalligi o‘rinda o‘sha bolaligimdagi manzara jonlana boshlaydi. Agar qandaydir



Cho‘qqilari osmon o‘pgan Kavkaz tog‘larining bag‘rida bir o‘lka bor. Uni Dog‘iston deyidilar. Do‘ppidekkina bu o‘lkada qirg‘ga yaqin tilda so‘zlashadigan bir million xalq yashaydi. Rasul Hamzatov ana shu xalqning shoiri, ana shu xalq shuhratini butun dunyoga tanitgan shoir.

**Erkin VOHIDOV,
O‘zbekiston Qahramoni,
Xalq shoiri**

sabab bilan xotiramda ovulim va uning atrofidagi manzara yashamaganda men uchun dunyo yuraksiz ko‘krak qafasiga, qorachig‘i yo‘q ko‘ziga, tilsiz og‘izga, qushsiz uyaga o‘xshardi.

Bu mavzumni ovulimning chegarasi, hovlimning kegarasi bilan belgilayman va shu chegaraga-kegaralarda baland devor tiklayman deganim emas.

Shunday dalalar bor, plugda chuqur shudgor qilganingdan keyingina yumshoq tuproq boshlanadi. Shunday dalalar bor, plugda ustki qavatini shudgor qilish bilan toshloq qismi ko‘rinadi. Shunday dalalar bor, ularni shudgor qilish shart emas. Chunki toshloq shudnog ko‘zga tashlanib turadi. Baribir bunday dalalardan hosil olib bo‘lmaydi.

Ona tuprog‘imga bo‘lgan mehrimni endi beminnat ishlagan ot kabi bog‘lig‘ holda ushlab turmoqchi emasman, uni yam-yashil yayo‘lga erkin qo‘yib yuborish kerak. Men o‘tning yuganini olaman, bo‘yniga shappatlab urib silab qo‘yaman, mayli, o‘tlasin, kuch




to‘plasin. Mening tuproqqa, Vatanga bo‘lgan mehrimda ham yayo‘lva erkin o‘tlab yurgan otga o‘xshash egzulik bor.

Men dunyodagi barcha hodisalarni, Vatanga bo‘lgan mehrimni faqat o‘z uyimda, o‘z ovulimda, o‘z Dog‘istonimda his qilish bilan kifoyalanmoqchi emasman. Aksincha, dunyodagi barcha hodisalar qayerda kezmay, Vatanga bo‘lgan mehrimda aks etishini istayman. Mening mavzumning, dunyoqarashimning mohiyati shunda.

Esimda, olis Santyagoda bo‘lganimda meni xo‘rozlar qichqirig‘i uyug‘otdi. Ko‘zimni ochdim. o‘zimni bir lahza tog‘lar orasidagi qadrdon ovulimdaman deb o‘yladim. O‘shanda Santyagodagi xo‘rozlar haqida yozaman deb dilingga tugdim.

Yaponiyadagi ajoyib Kamanur shahridagi go‘zallar tanlovda ishtirok etdim. Yapon go‘zallari navbatma-navbat sahnadan o‘tdi. Men beixtiyor ularni ovulimda qolgan yagonamga qiyosladim. Qancha tikilmay, hech qaysisida yagonamga xos fazilatni ko‘rmadim. Lekin yapon go‘zallari va go‘zallik tanlovi malikasi mening mavzumga kirib keldi.

Nepaldagii budda ibodatxonasi, qirol saroyi, dunyodagi barcha dard, afsun va jodudan forig‘ etuvchi yigirma ikkita buloqni tomosha qilib, toshli so‘qmoqlar orqali Kataman tog‘ining eng baland nuqtasiga ko‘tarildim. Atrofga nazar tashlab, qadrdon



Dog‘istonimni esladim. Holbuki, muqaddas buloq, qadimiy ibodatxona va go‘zal saroyini tomosha qilganimga qalbimda shunday shirin taassurot uyug‘onmagandi. Shu oddiy tog‘ manzarasi ajoyib arxitektura yodgorligidan menga qadrliroq tuyuldi. O‘yladimki, muqaddas buloqlar emas, mana shu tog‘lar odamlarni barcha darddan, afsun va jodudan forig‘ etadi. Shunda Nepalda ko‘rganlarim kitobimga mavzu bo‘lib kirdi.

Katta va sershovqin Kalkutta shahridan uning shundog‘ yaqinidagi kichkinagina qishloqqa keldik. Xirmonda ko‘kizlar bilan bug‘doy boshloqlarini maydalashayotgan ekan. Dunyodagi hech bir muzey yoki ulkan teatrillardagi tomoshalar ham bug‘doy poyalarni sekin yanchayotgan ko‘kizlarning yurishlaridagi zavq bag‘ishlamagandi. Go‘yo men o‘zimni ovulimga, bolaligimga qaytganday his qildim. Shunda Kalkutta yaqinidagi qishloqni kitobimga mavzu qilib oldim.

MAVZU HAQIDA XULOSA O‘RNIDA NIMA DEMOQCHIMAN? Shunday mavzu borki, uni takrorlaganing sayin ibodatday imoningni bot qiladi, ko‘nglingni o‘stiradi, ma‘naviyatini boyitadi.

Bu mavzu — ibodat, bu mavzu — Vatan! Agar bolalarni sho‘xliklari uchun jazolamoqchi bo‘lsangiz, tog‘liklar odatiga ko‘ra istagan joyiga urilishig‘ga mumkin, lekin yuziga go‘l tekizish mumkin emas. Tog‘liklarning yozilmagan qonuni shu: inson yuzi daxsizdir. Dog‘iston — mening yuzim. Hech kimning mening yuzimga daxl qilishiga yo‘l qo‘ymayman!

Tog‘liklar uncha-muncha gapga janjallashmaydi. Haqorat qilishsa ham chidashadi yoki haqoratli so‘zlarga haqoratli so‘zlar bilan javob qaytarishadi. Agar haqoratli so‘zlar

o‘zlariga qaratilgan bo‘lsa, ular shunday ayitishib turaverishlari mumkin. Biroq haqoratli so‘zlar onasining yoki opa-singlisining sha‘niga tegib ketsa bormi, qo‘llar xanjar tomon cho‘ziladi.

Dog‘iston — sen mening onamsan! Men bilan bahslashmoqchi bo‘lganlar, shuni doim yodda tuting. Meni xafa qilish mumkin — bari-ga chidayman. Biroq mening Dog‘istonimga til tekizga ko‘rmang.

Dog‘iston — mening muhabbatim, mening gasamim, mening tavbam, mening ibodatim! Dog‘iston — hayotimning mazmuni, barcha she‘rlarimning bosh mavzusi!

O‘ZIM SHOHIID BO‘LGANMAN, Indoneziya tog‘larida ham nog‘orani xuddi bizzning tog‘liklarga o‘xshab chalishar ekan, Nyu-York ko‘chalarida cherkaska kiyyan kavkazlik yurgandi, Istanbul va Parijda taqdir taqozosi bilan borib qolgan ko‘ngli yarim tog‘liklar ham yashaydi, Londonda balxar kulollari tayyorlagan sopol idishlar ko‘rgazmasi bo‘lgandi, Venetsiyada Sovir ovulidan chiqqan lak dorbozlar tomoshabinlarni hayratga solgandi, Pitsburgdagi noyob kitoblar sotuvchisi menga Shomil haqidagi kitobni ko‘rsatgandi.

Qayga bormay, qayda yurmay, Dog‘istonimga xos voqea-hodisalarga ko‘zim tushdi.

Bir necha qilichboz bitta askarga tashlansa, uning himoyalinishi oson emas. Askar bir vaqtning o‘zida ham oldidan, ham yonidan, ham orqasidan qilinayotgan hujumlarni bar-taraf etishi qiyin. Agar askarga yelkasi bilan suyanadigan qoyatosh bo‘lsa, shu qoyaga suyanib, mahoratini ishga solib, bir necha qilichbozga bas kelishi mumkin.

Dog‘iston — men uchun shunday su-yanch qoya. Qiyin damlarimda faqat unga suyanaman.

Sayohatchilar qaysi mamlakatga borsa, o‘sha mamlakatning qo‘shiqlarini olib keladi. Lekin bu masalada menga qiyinroq, chunki men qaysi mamlakatga bormayin, Dog‘iston haqidagi qo‘shiqlarni olib qaytaman.

Har bir yangi qo‘shiqni eshitganda Dog‘istonimni qaytadan kashf qilaman, Dog‘istonimga bo‘lgan muhabbatim yanada alangalanadi. Jonajon Dog‘istonim, sening madhingni kuylashga so‘z yetishmaydi.

Bir safar Yaponiyada turli davlat vakillari taassurotlarimiz bilan o‘rtoqlashdik. Biz favvora atrofida edik. Bu joy Dog‘istondagi ovul oqsoqollari davra quradigan toshlardan terilgan buloqboshiga o‘xshardi.

Ajoiyb mamlakat ekan, — dedi birinchi bo‘lib amerikalik kompozitor. — Men Yaponiya qiyofasida rivojlangan Amerikani ko‘ryapman.


— Nimalar deyapsiz? — e’tiroz bildirdi gaitilik jurnalist. — Hozirgina yaponlar yashaydigan qishloqlardan keldim. Menimcha, Yaponiya bizzning orolimizga o‘xshaydi.

— Janoblar, tortishmanglar, bu joyda Parij shodiyonlari va tashvishlari mujassam ekan, — deya suhbatga qo‘shildi fransiyalik arxitektor.

Men Dog‘iston ovullaridagi buloqboshilarga o‘xshash toshlardan terilgan favvoraga qarab o‘yga tildim: “Yaponiya — ajoiyb mamlakat. Unda boshqa mamlakatlarga o‘xshash hamma narsa bor, shu bilan birga, Yaponiya hech bir mamlakatga o‘xshamaydi. Chunki u — Yaponiya”.

Tug‘ilgan ovulim — Sada!.. Yetmishta xonadon. Musaffo osmog‘ga yetmishta xonadonning mo‘risidan ko‘m-ko‘k tutun ko‘tarilayapti. Qora tuproqli joydagi oppoq uylar. Ovul, oppoq uylar oldida — tep-tekis yam-yashil ekinzor. Ovul ortida — qoyalar. Xuddi qo‘shni hovlidagi to‘yni tomosha qilish

Jahon adabiyotiga o‘tgan XX asr tuhfa etgan o‘lmas siymolardan biri, shubhasiz, Dog‘iston yulduzi Rasul Hamzatovdir. Shoirming yurtparvarlik, elparvarlik tuyg‘ulari boshqalarga hech qachon malol kelmasdi. Xullas, Rasul Hamzatov dunyoga o‘zi orzu qilganidek, avvalambor, Dog‘iston kuychisi bo‘lib tanildi. Uning she‘riyati Yer yuzidagi barcha kitobxonlarga dini, tili, e’tiqodi, dunyoqarashidan qat’i nazar, birday manzur bo‘ldi. Biz, o‘zbeklar ham Hamzatovning o‘ta hayotiy, ohori to‘kilmagan tashbihlarga boy, turfa jumboq va boshqotirmalardan xoli hikmatli she‘rlarini intiqlik bilan kutar edik. Shoir O‘zbekistonni, o‘zbek xalqini benihoya hurmat qilar, daholarining no-minni tildan qo‘ymasdi. U asarlarining O‘zbekistonda, o‘zbek tilida o‘qilayotganidan takror-takror quvonardi.



**Abdulla ORIPOV,
O‘zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri**

uchun tom boshiga tizilgan bolalarday kurlang qoyalar qishloqqa qarab turibdi.

Jonajon Sada! Men ham bu dunyoda kezib, juda ko‘p ajib narsalarni ko‘rdim. Qaysi biriga qarashni bilmay ko‘zlarim o‘ynadi. Nigohimni bitta chiroyli ehromdan uzganda undan ham chiroyli ehromga ko‘zim tushdi, go‘zal chehralarga qaradim, lekin shuni aniq bilardim, ular qanchalik jozibali bo‘lmasin, ertaga undan ham jozibaliroqlarini uchrataman... Dunyoning cheki-chegarasi yo‘q ekan.

Meni Hindistonning ibodatxonalari, Misrning ehromlari, Italiyaning qadim yodgorliklari kechirsinlar, meni Amerika shoh ko‘chalarlari, Parij xiyobonlari, Angliya bog‘lari, Shveysariya tog‘lari ham kechirsinlar, meni polyak, yapon, italyan go‘zallari ham kechirsinlar, sizlarni qanchalik yoqtirmay, xushomad qilmay, yuragim bir maromda urdi, boshim aylanib qoladigan darajada aql-hushimdan ayirlimadim.

Hozir esa qoyalar etagida joylashgan yetmishta xonadonni ko‘rishim bilan yuragim o‘ynab ketdi, hatto ko‘krak qafasimga sig‘may qovurg‘alarimga botyapti. Xuddi kasal yo‘li mast bo‘lgan odamday ko‘z oldim qorong‘ilashyapti, boshim aylanayapti!

Nahotki shu kichkinagina ovulim Venetsiyadan, Qohiradan yoki Kalkuttadan go‘zal bo‘lsa? Nahotki bir bog‘ o‘tin quchoqlab ketayotgan avay ayoli baland bo‘yli, skandi-naviyalik oppoq qizlardan go‘zal bo‘lsa?

Sada! Ertalabdan yam-yashil dalalariningni kezaypaman, toliqgan oyoqlarimni shudring yuvyapti. Hatto yuzimni tog‘ jilg‘asi yoki bulog‘ining muzdek suvidan yuvishimga ho-



Mamlakatimizda Rasul Hamzatovni bilmaydigan, uni sevmaydigan odam topilmaydi. Shoirming rus tiliga mahorat bilan tarjima qilingan misralari xalqimiz tilida tez-tez takrorlanadigan qanotli iboralarga aylangan. Uning ulkan va mehrga to‘la qalbi jonajon Dog‘istoni uzra oppoq tunalar kabi parvoz qilaveradi.

**Qaysin QULIYEV,
bolqor shoiri**

jat yo‘q. Deydilar, suv ichmoqchi bo‘lsang, buloqning ko‘zidan ich. Yana deyidilar, bu hagda otam ham aytardilar. Erkak kishi faqat ikki holda tiz cho‘kishi mumkin: buloqdan suv ichganda va gul uzganda. Aziz Sada, sen men uchun bir buloqsan! Tiz cho‘kkancha tashnalik bilan sening mehringni simiraypman.

Toshga qarayman, unda tiniq ko‘lanka ko‘ringanday bo‘ladi. U mening o‘zim, o‘ttiz yil ilgari shunday edim. Toshga o‘tirib, o‘ttayotgan qo‘ylarga qarayman. Boshimda junli bo‘rk, qo‘limda uzun tayoq, etimga chang ko‘ngan.

So‘qmoqqa qarayman, unda tiniq ko‘lanka ketayotganday ko‘rinadi. U ham mening o‘zim, o‘ttiz yil ilgari shunday edim. Nega qo‘shni qishloqqa borgandim? Ha-ya, otam jo‘natgandi.

Har bir qadamda men o‘zimni uchrataypman, bolaligimni, bahor yomg‘irida qolganimni, gullar terganimni, hech kuzda dov-daraxtdan barglar to‘kilishini tomosha qilganimni qaytadan ko‘rganday bo‘laman.

Men yechinib, toshlarga urilib tomchilar sochayotgan sharshara tagida tura-

man. Oqim toshdan-toshga urilib sakkizga bo‘linadi, keyin qo‘shilib boshimga, yelkamga, qo‘llarimga quyiladi, qanday maza! Bu rohatijon muzday suv oldida Parijning “Qirol saroyi” mehmonxonasi vannasidagi plast-massa sepkichdan oqadigan ilimlik suv nima bo‘libidi?

Buloqdan otilayotgan suv kun bo‘yi qu-yosh nuridan qizigan toshda ilydi. Tog‘dagi bu toshli vanna oldida Londoning “Metropol” mehmonxonasidagi moviy vanna oddiy tog‘ora, xolos.

Ha, men katta shahar ko‘chalarida piyoda kezishni yaxshi ko‘raman. Lekin ko‘chalardan besh-olti marta o‘tganidan keyin hamma narsa tanishday ko‘rina boshlaydi va sayr qilish xohishim yo‘qoladi.

Ehtimol, o‘z ovulimning ko‘chalaridan min-ginchi marta o‘tayotgandirman, lekin chor-atrofga to‘ymay qarayman, unda sayr qilish istagi so‘nish o‘rniga alangalanadi.

Men Dog‘istonning eng baland cho‘qqisiga ko‘tarildim va tevarak-atrofga nazar tashladim. So‘qmoqlar har tomonga taralgan, qaydandir qo‘ng‘iroq ovozi eshitiladi, har-har joyda gulxanlar yoqilgan, tutun ko‘kka ko‘tarilaypti.

Oyog‘ing qadrdon zamin ustida turganda dunyoga qarash qanday yaxshi!

Bola tug‘ilayotganda o‘ziga Vatan tan-lamaydi — peshanasiga yozilgan joyda dunyoga keladi. Mendan ham dog‘istonlik bo‘lasanmi, deb hech kim so‘ramagan. Agar o‘zga ota-onadan, dunyoning o‘zga joyida tug‘ilganimga, men uchun o‘sha yerdan qadrlil joy bo‘lmas edi. Ha, mendan qayerda tug‘ilgeng kelaypti, deb so‘rashmagan. Ammo mendan hozir so‘rashsa, qanday javob bergan bo‘lardim?

Olislardan qulog‘imga pandur ohangi eshitildi. Uning ohangi ham, aytilayotgan qo‘shiq so‘zlari ham mening qalbiga yaqin.

Dengizni sog‘inib intilar daryo, Dengiz ham daryoni kutar doimo. Ushlasang kaftingga sig‘adi yurak, Goh mushtday yurakka tordir keng falak. Boshqa mamlakatlar yaxshidir ammo, Va lekin Dog‘iston baridan a’lo. Pandurchi emas, go‘yo Dog‘iston uning tili bilan kuylayapti.

Haq gapim kimningdir botsa diliga, Yaxshisi, indamay ketsin yo‘liga.

Mening kitobim! Mayli, sendan har kim o‘zi qidirgan narsasini topsin, lekin sen o‘zlinging saqlab qol, hech bir kitobga o‘xshama. Sen men uchun avirlarlik, dog‘istonliklari uyisan. Mayli, bu uy bag‘rida asrlar sinovidan o‘tgan urf-odattarimiz, zamon ruhi va kelajak yon-ma-yon yashasin.

OTAMAYTARDILAR: “Agar adabiy asarda muallifi ko‘zga tashlanmasa, u yo‘lda chopib ketayotgan chavandozsiz otga o‘xshaydi”.

Mahmud buyuk shoirimiz edi. She‘riyatining bosh mavzusi Maryamga bo‘lgan baxtsiz muhabbatidir. Qadrdon do‘sti o‘g‘il ko‘rganda Mahmuddan alla yozib berishini so‘radi. Mahmud alla yozishga urinib ko‘rdi. Afuski, Mahmudning alasinini tinglagan qashaloq uxlash o‘rniga battarroq yig‘ladi. Boshqa do‘sti xotini vafot etganda, Mahmuddan marsiya yozib berishini so‘radi. Mahmud marsiya yozishga urinib ko‘rdi. Afuski, Mahmudning marsiyasini tinglagan odamlar ko‘zlariga yosh o‘lmadi, ba’zi birov-lari jilmayib yo‘ydi.

Ammo odamlar Mahmudning Maryamga bo‘lgan baxtsiz muhabbatiga bag‘ishlangan qo‘shiqlarini tinglaganda hamon ko‘zlariga yosh oladi. Ha, Maryam Mahmudning bosh mavzusi edi. Mening bosh mavzum esa Dog‘istondir. Mening muhabbatim cheksiz yoki arzimasdirmi, men bilgan haqiqat teran yoki soddadirmi, tuyg‘ularim ko‘hna yoki zamonaviydirmi, ammo men baribir sen haqingda yozaman, Dog‘iston! Men sen haqingda yozish uchun qalam olsam, hamon hayajonlan-ganimdan qo‘lim qaltiraydi.

**Asror MO‘MIN
tarjimasii**

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetaları tahririyati” DUK

МУАССИС:
**O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlil chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-646.

43927 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taqoq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.

Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Bashorot Yunusova